



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

OLIV TA'LIM DASTURLARINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITASIYASIDAN

O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA

QO'LLANMA



www.nqaae.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**Oliy ta'lim dasturlarini
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha
QO'LLANMA**

Toshkent-2026

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida, ularning idoraviy mansubligi hamda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etishga doir uslubiy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Qo'llanma oliy ta'lim tashkilotlarida joriy etilayotgan va amaldagi ta'lim dasturlarining davlat ta'lim standartlari hamda akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash, shuningdek ularni takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga doir nazariy hamda amaliy tavsiyalarni qamrab oladi.

Qo'llanmada ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasi baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari kesimida tahlil qilish, zarur ma'lumotlarni shakllantirish hamda baholash natijalarini asoslovchi dalil va hujjatlarni aniqlash tartibi bayon etilgan.

Mazkur qo'llanma oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlari, ta'lim sifatini ta'minlash bo'linmalari mas'ullari hamda professor-o'qituvchilari uchun ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorlashda amaliy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur qo'llanma tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, oliy ta'lim tashkilotlarining taklif va mulohazalari asosida muntazam takomillashtirib boriladi.

MUNDARIJA

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar	4
KIRISH.....	5
ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ATAMALAR	7
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH.....	8
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH	9
BAHOLASH YO'NALISHI, MEZON VA INDIKATORLAR BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH	11
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH.....	12
TA'LIM DASTURINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI	14
I. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi.....	14
II. Ta'lim dasturlari yo'nalishi.....	30
III. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi	41
IV. Talabalar faoliyati yo'nalishi	58
V. Inson resurslari yo'nalishi	68
VI. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi	77
ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA	95
ILOVA: TA'LIM DASTURI BO'YICHA ICHKI BAHOLASH HISOBOTI SHAKLI	96
1-jadval.....	101
2-jadval.....	102
3-jadval.....	103
4-jadval.....	104
5-jadval.....	105
6-jadval.....	106
7-jadval.....	107
8-jadval.....	108
9-jadval.....	109
10-jadval.....	110
11-jadval.....	111
12-jadval.....	112
TA'LIM DASTURINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR REJASI.....	113
QAYDLAR UCHUN	114

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar

Qisqartmalar	Mazmuni
ARM	Axborot-resurs markazi
AKT	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
DTS	Davlat ta'lim standarti
HEMIS	Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi
LMS	Ta'limni boshqarish tizimi
OTT	Oliy ta'lim tashkiloti

KIRISH

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda belgilangan vazifalardan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

Qo'llanmada ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etishga doir uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.

Shuningdek, qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 14-noyabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida"gi 2-son buyrug'i (ro'yxat raqami: 3716) bilan tasdiqlangan indikatorlar bo'yicha tegishli ma'lumotlarni taqdim etishga doir uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Qo'llanma ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonini yagona talablar asosida tashkil etish, baholash yo'nalishlari, mezonlari va zarur hujjatlarni aniq belgilash hamda ta'lim tashkilotlariga ichki (o'zini o'zi) baholash hisobotini to'g'ri shakllantirish, asoslantiruvchi hujjatlarni yig'ish va tashqi baholash jarayoniga samarali tayyorgarlik ko'rishga metodik yordam beradi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash bo'yicha yagona yondashuvlarga rioya qilinishi ta'lim tashkiloti va tashqi baholash uchun ekspert komissiyalarining ish samaradorligini oshiradi hamda osonlashtiradi.

Ichki baholash jarayonining o'tkazilishidan maqsad ta'lim dasturlarini har tomonlama va chuqur tahlil qilishdan iborat bo'lib, kelgusida uning samaradorligini oshirish uchun foydalaniladi. Ichki baholash jarayonida ta'lim dasturini tahliliy va tanqidiy baholash amalga oshiradi.

Ichki baholash hisoboti tegishli baholash yo'nalishlari va mezonlariga muvofiq ma'lumotlarni tahlil qilishga bag'ishlangan qismlar va boblardan iborat tahliliy ma'lumotnoma shaklida tayyorlanadi.

Ta'lim dasturining ichki baholash hisobotidan ekspert komissiyalari tashqi baholash jarayonida to'liq ma'lumot olish va sifatni baholash uchun foydalanadi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash maqsadida ta'lim tashkiloti tomonidan ma'muriyat, professor-o'qituvchilar, kamida bitta talaba vakili, shuningdek ish beruvchilar va (yoki) ijtimoiy hamkorlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilib, baholash amalga oshirilishi mumkin.

Ichki baholash hisobotini tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- hisobotni mazkur qo'llanmada belgilangan ketma-ketlikda shakllantirish;
- taqdim etilayotgan har bir hujjat va ma'lumotni aniq, tushunarli hamda dalillar bilan asoslash;
- davlat tili qoidalari va talablariga amal qilish;
- rasmiy muomalada keng qo'llaniladigan so'z va atamalardan foydalanish;
- istiqbolli rejalar, loyihalar va kutilayotgan natijalarni aniq ko'rsatish;
- har bir baholash mezoni va indikatorlari bo'yicha qisqa, aniq hamda dalillarga asoslangan tahliliy ma'lumotlarni kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) davlat akkreditatsiyasini o'tkazish bo'yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ATAMALAR

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23.09.2020, O'RQ-637-son), qonunosti hujjatlari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan asosiy tushuncha va atamalardan foydalanilishi shart.

Shuningdek, maxsus davlat akkreditatsiyasining ichki baholash hisobotini shakllantirish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan nizom hamda mazkur qo'llanmada qo'llanilgan asosiy tushuncha va atamalar asosida amalga oshiriladi.

Quyidagi tushuncha va atamalar davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida keng foydalaniladi:

davlat akkreditatsiyasi – ta'lim tashkiloti faoliyati davlat ta'lim standartlari (talablari) va ta'lim dasturlariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan kompleks yoki maxsus akkreditatsiyani o'z ichiga oluvchi jarayon;

baholash yo'nalishi – davlat akkreditatsiya doirasida sifat va samaradorlikni baholash uchun belgilangan asosiy yo'nalishlar majmui bo'lib, boshqaruv, ta'lim sifati, o'quv jarayoni, inson resurslari, ta'lim oluvchilar faoliyati, moddiy-texnik baza kabi yo'nalishlarni qamrab oladi;

mezon – muayyan baholash yo'nalishida sifatga qo'yiladigan minimal talablar va standartlar majmui;

indikator – belgilangan mezon bajarilishini aniq, o'lchab bo'ladigan va asoslantiruvchi dalillar bilan tasdiqlanadigan ko'rsatkich;

Ichki baholash hisoboti – ta'lim tashkiloti tomonidan har bir ta'lim dasturini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorgarlik jarayonida tayyorlanadigan hujjat bo'lib, unda ta'lim dasturining baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga muvofiqligi yuzasidan tahlillar, dalillar hamda xulosalar keltiriladi.

ta'lim tashkiloti – oliy ta'lim tashkiloti;

asoslantiruvchi dalillar – mezon yoki indikatorlarga tegishli hujjatlar, ma'lumotlar, statistika, jarayonlar, qarorlar, foto/video materiallar yoki boshqa aniq asoslar.

MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risida arizalar Agentlikning Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyadan o'tkazish va reytingini yuritish bo'yicha "**accreditation.nqaae.uz**" axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizalar kelgusi o'quv yilida faoliyatini boshlash uchun **har yili 1-oktabrdan kelgusi yilning 31-yanvarigacha** qabul qilinadi.

Ushbu muddatlardan tashqari boshqa muddatlarda maxsus davlat akkreditatsiyasi ta'lim tashkilotining murojaatiga asosan, Agentlik bilan tuziladigan shartnoma shartlari va oshirilgan to'lov asosida amalga oshiriladi.

Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizani shakllantirish, qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilish va ularni ko'rib chiqish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda ta'lim tashkilotining vakili (ariza beruvchi) belgilangan talablar asosida ariza topshirish, yig'implarni belgilangan muddatlarda to'lash, Agentlik va ta'lim tashkiloti o'rtasida shartnomani rasmiylashtirish, ekspert komissiyasining joyiga chiqqan holdagi faoliyati hamda Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etish uchun mas'ul hisoblanadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH

Ta'lim tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisobotida davlat akkreditatsiyasi mezonlari asosida ta'lim dasturining real holati dalillarga tayangan holda tahlil qilinadi, baholanadi hamda uni takomillashtirish choralari belgilanadi. Unda keltirilgan ma'lumotlardan ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim dasturlarini tashqi baholash jarayonlarida foydalaniladi.

Ichki baholash hisoboti ta'lim dasturining davlat ta'lim standartlari va akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash, uning kuchli hamda takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash, ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga qaratilgan xulosa va takliflarni shakllantirish, shuningdek maxsus davlat akkreditatsiyasi uchun ishonchli dalillar bazasini yaratish maqsadida tuziladi.

Akkreditatsiya yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga qat'iy muvofiqlikni ta'minlash maqsadida hisobot amaldagi maxsus davlat akkreditatsiyasi baholash tuzilmasiga mos bo'lishi shart. Bunda har bir indikator bo'yicha amaldagi holat, dalillar, xulosa hamda takomillashtirish choralari aniq yoritilishi lozim.

E'TIBOR BERING!!!

Ichki baholash hisobotini to'g'ri shakllantirishda mazkur qo'llanmaning "Ta'lim dasturini baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari" bo'yicha tavsiya etilgan savollar hamda asoslantiruvchi dalil(lar)dan foydalangan holda aniq va asoslangan ma'lumotlar kiritilishi lozim.

Shuningdek, kiritilgan ma'lumotlar va ularni tasdiqlovchi hujjatlar elektron shaklda platformaga yuklanishi shart.

Ichki baholash hisobotida asoslantiruvchi dalil(lar) bilan tasdiqlanmagan umumiy ma'lumotlar hisobot sifatida qabul qilinmaydi.

Har bir baholash xulosasining rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, hisobotlar, so'rovnoma natijalari hamda fikr-mulohazalar tahliliga asoslanganligi (evidence-based approach) ta'minlanishi shart.

Hisobotning haqqoniyligi va tanqidiy yondashuvini ta'minlash maqsadida u real holatni aks ettirishi, sun'iy yuqori baholashdan xoli bo'lishi, kamchiliklar ochiq va aniq ko'rsatilishi, ularning sabablari tahlil qilinishi hamda aniq yechimlar taklif etilishi lozim.

Hisobotni milliy va xalqaro standartlar bilan uyg'un holda, davlat ta'lim standartlari, milliy malaka ramkasi, akkreditatsiya mezonlari hamda xalqaro yondashuvlar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Ta'lim natijalari aniq, o'lchanadigan va tekshiriladigan bo'lishi, kasbiy standartlar hamda mehnat bozori ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi, shuningdek bitiruvchilarning ishga joylashuvi, amaliyot o'tashi va dual ta'lim natijalari tahlil qilinishi lozim.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning dolzarbligini ta'minlash maqsadida ta'lim oluvchilar, pedagoglar, ish beruvchilar, bitiruvchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart.

Hisobot ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi, elektron (zarur hollarda qog'oz) shaklda saqlanadi hamda Agentlikka tayyor holatda platforma orqali taqdim etiladi.

**BAHOLASH YO'NALISHI, MEZON VA INDIKATORLAR BO'YICHA NATIJALARNI
HISOBLASH**

Baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlarga bo'linadi hamda "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi.

Mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) "muvofiq emas" deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy mezonlarga bo'linadi hamda har bir mezon "muvofiq", "qisman muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha quyidagi tartibda aniqlanadi:

70 foiz va undan ortiq indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "muvofiq";

50 foizdan 70 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "qisman muvofiq";

50 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi har bir baholash yo'nalishi bo'yicha baholanadi.

Har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb e'tirof etiladi. Bunda har bir baholash yo'nalishi quyidagi shartlar bajarilganda "muvofiq" deb baholanadi:

majburiy mezonlarning barchasi "muvofiq" deb baholanganda;

umumiy mezonlarning ko'pi bilan ikkitasi "qisman muvofiq" deb baholanganda;

"muvofiq emas" deb baholangan mezonlar mavjud bo'lmaganda.

Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" deb e'tirof etilganda, ushbu ta'lim dasturi "davlat akkreditatsiyasidan o'tdi" deb, "muvofiq emas" deb e'tirof etilganda esa "davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi" deb qaror qabul qilinadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH

Ta'lim sifatini tashqi baholash uchun Agentlik tomonidan ekspert komissiyalari tashkil etiladi. Ekspert komissiyalari ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Ekspert komissiyalari tarkibi ta'lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul xodimlari, tegishli ishlab chiqarish tashkilotlarining mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda talaba (o'quvchi)lar orasidan shakllantiriladi. Ekspert komissiyalari tarkibiga xorijiy ekspertlar jalb etiladi.

Ekspert komissiyalarining vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki baholash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish hamda tashqi baholashni amalga oshirish;

ta'lim dasturining davlat ta'lim standartlari (talablari), akkreditasiya mezonlari va ta'lim dasturlariga muvofiqligi baholash;

ta'lim sifatini oshirish va ta'lim xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish hamda tashqi baholash natijalari yuzasidan hisobotni tayyorlash va Akkreditasiya komissiyasiga taqdim etish.

Ichki baholash hisoboti **mazkur qo'llanmaning ilovasida keltirilgan namuna** asosida shakllantiriladi.

Ta'lim tashkiloti ichki baholash natijasida shakllantirilgan hisobot va unga tegishli materiallarni elektron va (yoki) qog'oz shaklida tasdiqlangan holda tashqi baholash boshlanishidan kamida **bir oy oldin** Agentlikka platforma orqali taqdim etadi.

Ekspert komissiyalari ichki baholash hisobotini o'rganadi hamda undan tashqi baholash jarayonida foydalanadi. Ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish ekspert komissiyasi tomonidan joyiga chiqqan holda, **besh ish kunidan oshmagan muddatda** amalga oshiriladi.

Tashqi baholash jarayonida ichki baholash hisobotida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar aniqlanishi, shuningdek, belgilangan muddatlarda hujjatlarning taqdim qilinmasligi yoki kamchiliklarning bartaraf etilmasligi davlat akkreditatsiyasidan o'tkazmaslik uchun asos bo'ladi.

Dastlabki hisobot tashqi baholash natijalari asosida ekspert komissiyasi tomonidan **o'n besh ish kuni ichida** tayyorlanadi hamda uning xulosasi Agentlik orqali ta'lim tashkilotiga taqdim etiladi.

Ta'lim tashkiloti dastlabki hisobot xulosasi yuzasidan asoslantirilgan taklif va e'tirozlarini **uch ish kuni ichida** Agentlikka rasman taqdim etadi. Mazkur taklif va e'tirozlar asosida ekspert komissiyasi tomonidan **uch ish kuni ichida** yakuniy hisobot tayyorlanadi.

Ekspert komissiyasi tomonidan maxsus davlat akkreditatsiyasida har bir ta'lim dasturi bo'yicha alohida hisobot tayyorlanadi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim qilingan ichki baholash hisoboti asosida ekspert komissiyasi joyiga chiqmasdan, masofaviy shaklda tashqi baholashni amalga oshirishi mumkin.

TA'LIM DASTURINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI

Oliy ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning **6 ta baholash yo'nalishi** doirasida **31 ta mezon** hamda ularni tavsiflovchi **186 ta indikator** mavjud.

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan yangi tashkil etilgan ta'lim dasturlari, shuningdek, amaldagi ta'lim dasturlari ham o'tkazilganligi sababli, ma'lum indikatorlar faqat amaldagi ta'lim dasturlari uchun tatbiq etiladi.

Mazkur qo'llanmada  belgisi bilan majburiy mezonlar, * belgisi bilan majburiy indikatorlar, ** belgisi bilan esa faqat amaldagi ta'lim dasturlari uchun qo'llaniladigan indikatorlar ajratib ko'rsatilgan.

I. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Izoh: Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ta'lim sifatini ichki ta'minlash orqali mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim dasturini muntazam takomillashtirishga qaratilgan faoliyat baholanadi.

1. MEZON: Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi

Izoh: Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tegishli tarkibiy bo'linmalar faoliyatining tashkil etilganligi, ularning vazifa va funksiyalari aniq belgilanganligi, faoliyat samaradorligini ta'minlovchi ichki boshqaruv mexanizmlarining yo'lga qo'yilganligi o'rganiladi

1.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmani (kafedrani, bo'limni) (bundan buyon matnda tarkibiy tuzilma deb yuritiladi) tashkil etish hamda uni moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejalar mavjud*

Yordamchi savollar:

❖ Tarkibiy tuzilmani tashkil etish jarayoni qanday rejalashtirilgan va uning vazifalari qanday belgilangan?

❖ Tarkibiy tuzilmani moddiy-texnik baza bilan ta'minlash bo'yicha qanday aniq choralar, bosqichlar va mexanizmlar ishlab chiqilgan?

❖ Tarkibiy tuzilmaga zarur moliyaviy resurslarni ajratish qanday tartibda amalga oshiriladi va bu jarayonni moliyalashtirish rejasi qanday shakllantirilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Tarkibiy tuzilma, kafedra yoki bo'limni tashkil etish to'g'risidagi buyruq yoki OTT kengashi qaroridan ko'chirma;

✓ *Tarkibiy tuzilmani moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq reja; tegishli jadvallar.*

1.2. INDIKATOR

Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan va ta'lim dasturi doirasida belgilangan maqsadlarga uyg'un tarzda aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari qanday belgilangan va ular ta'lim dasturining maqsadlari bilan qanday bog'langan?*

❖ *Tarkibiy tuzilmaning faoliyati ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga qanday hissa qo'shadi va bu jarayon qanday mexanizmlar orqali ta'minlanadi?*

❖ *Tarkibiy tuzilma vakolatlari va vazifalarining ta'lim dasturi maqsadlariga uyg'unligi qanday tartibda muntazam ko'rib chiqiladi va yangilanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tarkibiy tuzilmaning nizom(lar)i.*

1.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun tarkibiy tuzilma moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlangan hamda tarkibiy tuzilmaning ish rejalari ishlab chiqilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Tarkibiy tuzilmaning ta'lim dasturini samarali amalga oshirishi uchun qanday moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari ajratilgan va ular yetarliligi qanday baholanadi?*

❖ *Tarkibiy tuzilmaning ish rejalari qanday tartibda ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi va ta'lim dasturining maqsadlari bilan qanday bog'lanadi?*

❖ *Resurslarni boshqarish va ulardan samarali foydalanish qanday mexanizmlar orqali ta'minlanadi va bu jarayon qanday monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tarkibiy tuzilmaning ish rejasi;*

✓ *Moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslari haqida ma'lumot;*

✓ *Tegishli jadvallar.*

1.4. INDIKATOR

Tarkibiy tuzilmaning faoliyati oliy ta'lim tashkiloti va ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga uyg'un**

Yordamchi savollar:

❖ *Tarkibiy tuzilmaning faoliyati oliy ta'lim tashkilotining umumiy maqsadlari va ta'lim dasturining kutilgan o'quv natijalari bilan qanday uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Tarkibiy tuzilmaning amalga oshirayotgan ish jarayonlari va tashabbuslari o'quv natijalariga erishishga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

❖ *Faoliyatning maqsad va o'quv natijalari bilan mosligini muntazam baholash uchun qanday monitoring mexanizmlari yoki ko'rib chiqish jarayonlari mavjud?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kafedra (bo'lim)ning yillik ish rejasi. Bayonnoma va/yoki hisobotlar.*

1.5. INDIKATOR

Tarkibiy tuzilma tomonidan ta'lim dasturining mehnat bozori talablariga muvofiqligi va natijadorligi baholanib, tahliliy ma'lumotlar muntazam tayyorlanadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Tarkibiy tuzilma ta'lim dasturining mehnat bozori talablariga muvofiqligini qanday tartibda baholaydi va bu jarayonda qaysi ma'lumot manbalardan foydalanadi?*

❖ *Mehnat bozori bilan bog'liq tahliliy ma'lumotlar qanday usullar orqali yig'iladi, qayta ishlanadi va muntazam ravishda tayyorlanadi?*

❖ *Baholash natijalari ta'lim dasturining rivojlanishi, yangilanishi yoki takomillashtirilishi uchun qanday qarorlar qabul qilish jarayonida qo'llanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mehnat bozori bilan bog'liq tahliliy ma'lumotlar. Bayonnoma va/yoki hisobotlar.*

1.6. INDIKATOR

Tarkibiy tuzilma faoliyati muntazam monitoring va tahlil orqali tizimli ravishda tahlil qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Tarkibiy tuzilma faoliyatini monitoring qilish qanday tartibda amalga oshiriladi va monitoring jarayonida qaysi indikatorlar qo'llanadi?*

❖ *Muntazam tahlil uchun ma'lumotlar qanday yig'iladi, qayta ishlanadi va faoliyat samaradorligini baholashda qanday metodlar qo'llanadi?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalariga asosanib, tarkibiy tuzilma faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qanday choralar belgilab boriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ichki tahlil materiallari (SWOT-analiz, monitoring xulosalari, Kengash qarorlari).

1.7. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari asosida tarkibiy tuzilmaning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalaridan kelib chiqib, tarkibiy tuzilma faoliyatini takomillashtirish uchun qanday chora-tadbirlar belgilab olinadi va ularni tanlash mezonlari qanday?*

❖ *Belgilangan chora-tadbirlar qanday tartibda amalga oshiriladi va ularning bajarilishi uchun mas'ullar hamda muddatlar qanday aniqlanadi?*

❖ *Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligi qanday baholanadi va zarurat tug'ilganda ularni qayta ko'rib chiqish mexanizmi qanday ishlaydi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Faoliyatni takomillashtirish rejasi (Action Plan / Improvement Plan) va uning ijrosi ta'minlanganligi*

2. MEZON: Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi

Izoh: *Ta'lim dasturini takomillashtirish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi, rejada ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy ta'minot yo'nalishlarining qamrab olinganligi, har bir yo'nalish bo'yicha aniq maqsad va baholash mezonlarining belgilanganligi, moliyaviy manbalarning aniq ko'rsatilganligi hamda reja ijrosini ta'minlash bo'yicha ichki monitoring va tahlil tizimi yo'lga qo'yilganligi o'rganiladi.*

2.1. INDIKATOR

Istiqbolli reja ishlab chiqilgan va oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) bilan mos

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli reja qanday tartibda ishlab chiqilgan va uning asosiy maqsadlari oliy ta'lim tashkilotining missiyasi hamda strategik rejasi bilan qanday uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Istiqbolli rejadagi ustuvor yo'nalishlar va kutilayotgan natijalar strategik rejaning maqsadlarini amalga oshirishga qanday hissa qo'shadi?*

❖ *Istiqbolli rejani strategik hujjatlar bilan mosligini ta'minlash uchun uni ko'rib chiqish, yangilash va monitoring qilish qanday mexanizmlar asosida amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha 5 yillik istiqbolli rivojlantirish rejasi (tasdiqlangan nusxasi)*

2.2. INDIKATOR

Istiqbolli rejada ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari qamrab olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli rejada ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari qanday asoslar va tahlillar asosida belgilangan?*

❖ *Har bir yo'nalish bo'yicha rejalashtirilgan maqsadlar va vazifalar ta'lim tashkilotining umumiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

❖ *Ushbu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning bajarilishi qanday monitoring qilinadi va natijalar asosida istiqbolli reja qay tarzda yangilanib boriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yo'nalishlar bo'yicha maqsadlar, vazifalar va kutilayotgan natijalar aks etgan strukturaviy jadvallar*

2.3. INDIKATOR

Istiqbolli rejadagi har bir yo'nalish bo'yicha aniq maqsadlar, vazifalar va ushbu vazifalarning bajarilishini baholash mezonlari belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli rejaning har bir yo'nalishi bo'yicha maqsadlar va vazifalar qanday aniqlangan hamda ular ta'lim tashkilotining strategik ustuvorliklari bilan qanday bog'langan?*

❖ *Belgilangan vazifalarning bajarilishini baholash mezonlari qanday ishlab chiqilgan va ular natijadorlikni o'lchashga qanchalik imkon beradi?*

❖ *Maqsad va vazifalarning bajarilishi monitoringi qanday tartibda olib boriladi hamda baholash natijalari asosida qanday choralar ko'riladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha 5 yillik istiqbolli rivojlantirish rejasi (tasdiqlangan nusxasi)*

2.4. INDIKATOR

Istiqbolli rejani amalga oshirish uchun mas'ul ijrochilar hamda ijro muddatlari aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli rejadagi har bir vazifa uchun mas'ul ijrochilar qanday mezonlar asosida tanlangan va ularning rollari qanday belgilangan?*

❖ *Ijro muddatlari qanday tartibda aniqlangan va ular rejaning umumiy maqsadlariga erishishni ta'minlashga qanday xizmat qiladi?*

❖ *Mas'ullar va muddatlar bajarilishini monitoring qilish qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi va zarur holatlarda qanday tuzatish choralari ko'rish tartibi belgilangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha 5 yillik istiqbolli rivojlantirish rejasi (tasdiqlangan nusxasi)*

2.5. INDIKATOR

Istiqbolli rejani amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli rejani amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari qanday aniqlangan va ularning yetarliligi qanday baholanadi?*

❖ *Ushbu resurslar rejaning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qanday taqsimlanadi va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash mexanizmlari qanday?*

❖ *Resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanish jarayonini monitoring qilish qanday tartibda amalga oshiriladi hamda zarurat tug'ilganda resurslarni optimallashtirish bo'yicha qanday choralar ko'riladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha 5 yillik istiqbolli rivojlantirish rejasi (tasdiqlangan nusxasi)*

2.6. INDIKATOR

Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi xavf tahlili mavjud hamda ushbu xavflarni bartaraf etish bo'yicha muqobil choralar belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli reja doirasida vazifalarni amalga oshirishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavflar qanday aniqlangan va ularni baholash uchun qaysi tahlil usullaridan foydalanilgan?*

❖ *Aniqlangan xavflarni kamaytirish yoki bartaraf etish bo'yicha qanday muqobil choralar ishlab chiqilgan va ular qaysi sharoitlarda qo'llanishi belgilangan?*

❖ *Xavflarni monitoring qilish va zarur hollarda muqobil choralarni ishga tushirish mexanizmlari qanday tartibda yo'lga qo'yilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi xavf tahlili mexanizmi va muqobil choralar*

2.7. INDIKATOR

Istiqbolli rejaning bajarilishi bo'yicha monitoring va tahlil tizimi yo'lga qo'yilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli rejaning bajarilishini monitoring qilish qanday tartibda tashkil etilgan va monitoring jarayonida qaysi indikatorlar qo'llanadi?*

❖ *Reja ijrosiga oid ma'lumotlar qanday yig'iladi, tahlil qilinadi va natijalar asosida qanday qarorlar qabul qilinadi?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida istiqbolli reja qanday tartibda yangilanadi yoki takomillashtiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki tahlil materiallari (SWOT-analiz, monitoring xulosalari, Kengash qarorlari) va asoslovchi hujjatlar.*

2.8. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari taqozo etgan taqdirda, istiqbolli rejaga tegishli o'zgartirishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida istiqbolli rejaga o'zgartirishlar kiritish jarayoni qanday tartibda amalga oshiriladi va ushbu tartib kim tomonidan tasdiqlanadi?*

❖ *Rejaga kiritilgan o'zgartirishlarning maqsadga muvofiqligi qanday baholanadi va ular ta'lim tashkilotining strategik maqsadlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

❖ *O'zgartirishlar joriy etilgandan so'ng ularning ijrosi qanday nazorat qilinadi va zarur hollarda qo'shimcha tuzatishlar kiritish mexanizmi qanday ishlaydi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Reja yangilanishi yoki takomillashtirilishi haqidagi qarorlar (kengash yoki ishchi guruh bayonnomasi).

3. MEZON: Ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani

Izoh: Ta'lim dasturi doirasida sifatni ta'minlash bo'yicha ichki tizimning mavjudligi va samarali faoliyat yuritishi, ta'lim dasturini muntazam monitoring qilish hamda qayta ko'rib chiqish tartib-qoidalarini yo'lga qo'yilganligi, fan mazmuni va o'qituvchi faoliyatini baholash tizimining tizimli amalga oshirilishi, shuningdek, manfaatdor tomonlar fikr-mulohazalarini muntazam o'rganish va ularni ta'lim dasturini takomillashtirish jarayonida inobatga olish mexanizmi ta'minlanganligi o'rganiladi.

3.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar, shu jumladan tartib (qoidalar) oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasida (missiyasida, strategiyasida) belgilangan maqsadlar va institutsional sifatni ta'minlash siyosatiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan, tasdiqlangan hamda jamoatchilik uchun ochiq

Yordamchi savollar:

❖ Sifatni ichki ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar (tartib/qoidalar) qanday tartibda ishlab chiqilgan va ular oliy ta'lim tashkilotining strategik reja, missiya va institutsional sifat siyosati bilan qanday uyg'unlashtirilgan?

❖ Ushbu hujjatlar kim tomonidan va qanday jarayon orqali tasdiqlangan hamda tasdiqlashda manfaatdor tomonlarning fikri qanday inobatga olingan?

❖ Ichki hujjatlar jamoatchilik uchun qanday shaklda e'lon qilingan va ularni ochiq-oshkora taqdim etish mexanizmlari qanday yo'lga qo'yilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ichki sifatni ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar

3.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturini muntazam monitoring qilish, tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish tartibi (qoidalarini) mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturini muntazam monitoring qilish, tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan va ushbu tartibning asosiy bosqichlari qanday?

❖ *Monitoring va tahlil jarayonida qanday ma'lumotlar yig'iladi, kimlar ishtirok etadi va natijalar qanday usullar orqali baholanadi?*

❖ *Tahlil natijalariga ko'ra ta'lim dasturiga o'zgartirishlar kiritish jarayoni qanday amalga oshiriladi va uning samaradorligi qanday nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki sifatni ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar*

3.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirishda talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari, bitiruvchilar, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) fikr-mulohazalarini inobatga olish mexanizmi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini yig'ish uchun qanday mexanizmlar (so'rovnomalar, muloqotlar, maslahat kengashlari va boshqalar) yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Yig'ilgan fikr-mulohazalar qanday tartibda tahlil qilinadi va ta'lim dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritishda qanday usullar orqali hisobga olinadi?*

❖ *Manfaatdor tomonlarga ularning taklif va fikrlari natijasida amalga oshirilgan o'zgartirishlar haqida qanday tarzda muntazam axborot beriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki sifatni ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar*

3.4. INDIKATOR

Sifatni ichki ta'minlash mexanizmlarini joriy etish, muvofiqlashtirish va takomillashtirish jarayonlari strategik boshqaruvning uzviy qismi sifatida tizimli ravishda amalga oshiriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Sifatni ichki ta'minlash mexanizmlarini joriy etish, muvofiqlashtirish va takomillashtirish jarayonlari strategik boshqaruv tizimiga qanday integratsiya qilingan va bu jarayonning asosiy bosqichlari qanday?*

❖ *Sifatni ichki ta'minlash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishda kimlar mas'ul hisoblanadi va ularning vazifalari strategik boshqaruv bilan qanday bog'langan?*

❖ *Sifatni ichki ta'minlash mexanizmlarining samaradorligi qanday monitoring qilinadi va natijalarga asosanib, ularni takomillashtirish bo'yicha qanday choralar ko'riladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki sifatni ta'minlash bo'yicha tahlil materiallari (SWOT-analiz, monitoring xulosalari, Kengash qarorlari) va asoslovchi hujjatlar*

3.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturi sifatini baholash maqsadida manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari muntazam baholanadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Manfaatdor tomonlarning (talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar, bitiruvchilar va boshqalar) fikr-mulohazalarini muntazam yig'ish va baholash qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *Yig'ilgan fikr-mulohazalar qanday mezonlar asosida tahlil qilinadi va ta'lim dasturi sifatini baholash jarayonida qanday usullar qo'llanadi?*

❖ *Baholash natijalari asosida ta'lim dasturining sifati bo'yicha qanday qarorlar qabul qilinadi va ular manfaatdor tomonlarga qanday shaklda yetkaziladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Manfaatdor tomonlar (talabalar, ish beruvchilar, bitiruvchilar) fikrlarini o'rganish bo'yicha tahlil hisobotlari*

3.6. INDIKATOR

Manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Manfaatdor tomonlardan olingan fikr-mulohazalar qanday tartibda tahlil qilinadi va ta'lim dasturini takomillashtirish uchun qaysi mezonlar asosida chora-tadbirlar tanlanadi?*

❖ *Belgilangan chora-tadbirlar qanday tartibda amalga oshiriladi, ular uchun mas'ullar va muddatlar qanday belgilanadi?*

❖ *Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning ta'lim dasturini takomillashtirishga ta'siri qanday baholanadi va zarurat tug'ilganda qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish jarayoni qanday tashkil etiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Manfaatdor tomonlar fikri asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar rejasi (Action Plan)*

3.7. INDIKATOR

Sifatni ichki ta'minlash tizimi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi muntazam ravishda baholab boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Sifatni ichki ta'minlash tizimi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash uchun qanday mezonlar va indikatorlar qo'llanadi?

❖ Baholash jarayoni qanday tartibda amalga oshiriladi, unda kimlar ishtirok etadi va ma'lumotlar qanday yig'iladi hamda tahlil qilinadi?

❖ Baholash natijalariga ko'ra chora-tadbirlarni takomillashtirish yoki yangilash bo'yicha qanday qarorlar qabul qilinadi va bu jarayon qanday monitoring qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ichki monitoring va baholash hisobotlari (Internal Quality Monitoring Report)

4. MEZON: Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi

Izoh: Ta'lim dasturi doirasida samarali boshqaruvni ta'minlash maqsadida ishonchli ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan foydalanish tizimi, shuningdek, mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqot sohasidagi so'nggi tendensiyalarni muntazam monitoring qilish mexanizmi mavjudligi, monitoring natijalari asosida talabalarni mehnat bozorida imkoniyatlar haqida xabardor etish hamda ta'lim dasturini rejalashtirish, amalga oshirish va takomillashtirish jarayonlarida ushbu ma'lumotlardan samarali foydalanish darajasi o'rganiladi.

4.1. INDIKATOR

Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ish, tahlil va monitoring qilish bo'yicha tartib mavjud hamda ushbu masalalar yuzasidan tarkibiy tuzilmaning vazifa va funksiyalari aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni yig'ish, tahlil va monitoring qilish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan va jarayonning asosiy bosqichlari qanday?

❖ Mazkur ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda tarkibiy tuzilmaning vazifa va funksiyalari qanday aniqlangan hamda ular amalda qanday bajariladi?

❖ Yig'ilgan ma'lumotlar asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirish, yangilash yoki qarorlar qabul qilish jarayoni qanday amalga oshiriladi va bu jarayonning monitoring mexanizmi qanday?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ish, tahlil va monitoring qilish bo'yicha tartib*

✓ *Mehnat bozori va sohaviy ehtiyojlar bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari.*

✓ *Monitoring va tahlil ishlarining amalga oshirilganligini tasdiqlovchi ichki hisobotlar*

4.2. INDIKATOR

Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni yig'ish, tahlil va monitoring qilish jarayonlari yo'lga qo'yilgan, shuningdek ta'lim dasturi ushbu jarayonlarni tizimli va izchil amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqot tendensiyalariga oid ma'lumotlarni yig'ish, tahlil va monitoring qilish jarayonlari qanday tartibda yo'lga qo'yilgan va ular qanday vositalar orqali amalga oshiriladi?*

❖ *Ushbu jarayonlarni izchil amalga oshirish uchun ajratilgan moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari qanday aniqlangan va ularning yetarliligi qanday baholanadi?*

❖ *Yig'ilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar ta'lim dasturini takomillashtirish yoki yangilash jarayonida qanday qo'llanadi va bu jarayonning samaradorligi qanday monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mehnat bozori monitoringi va tahlili bo'yicha hisobotlar (yillik yoki yarim yillik).*

4.3. INDIKATOR

Yig'ilgan ma'lumotlar ta'lim dasturini rejalashtirish va ishlab chiqishda qo'llanilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlar (mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari, ilmiy-tadqiqot tendensiyalari) ta'lim dasturini rejalashtirish va ishlab chiqish jarayoniga qanday tartibda integratsiya qilingan?*

❖ *Mazkur ma'lumotlar asosida ta'lim dasturining maqsadlari, mazmuni va kompetensiyalarida qanday o'zgarish yoki yangilanishlar amalga oshirilgan?*

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanish samaradorligi qanday baholanadi va ular dasturga ta'sir qilganini ko'rsatib beruvchi qanday dalillar mavjud?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Yig'ilgan ma'lumotlar

4.4. INDIKATOR

Tahlil va monitoring natijalari asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tahlil va monitoring natijalari qanday tartibda ko'rib chiqiladi va ta'lim dasturini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar qaysi mezonlar asosida belgilanadi?*
- ❖ *Belgilangan chora-tadbirlar qanday bosqichlarda amalga oshiriladi va ularning bajarilishi uchun kimlar mas'ul etib belgilangan?*
- ❖ *Takomillashtirish chora-tadbirlarining samaradorligi qanday monitoring qilinadi va zarur hollarda qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish jarayoni qanday tashkil etiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Ta'lim dasturini takomillashtirish rejasi va uning ijrosi ta'minlanganligi*

4.5. INDIKATOR

Tahlil va monitoring natijalari va belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish yakunlaridan kelib chiqib, ta'lim dasturiga zarur o'zgartirishlar kiritiladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tahlil va monitoring natijalari hamda amalga oshirilgan chora-tadbirlar yakunlari qanday tartibda baholanadi va ta'lim dasturiga o'zgartirish kiritish zarurati qanday aniqlanadi?*
- ❖ *Ta'lim dasturiga kiritiladigan o'zgartirishlar qanday jarayon orqali ishlab chiqiladi, muvofiqlashtiriladi va tasdiqlanadi?*
- ❖ *Kiritilgan o'zgartirishlarning samaradorligi qanday monitoring qilinadi va zarurat tug'ilganda qo'shimcha takomillashtirishlar kiritish mexanizmi qanday ishlaydi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha tahlil materiallari (monitoring xulosalari, Kengash qarorlari) va asoslovchi hujjatlar*

4.6. INDIKATOR

Talabalarni mehnat bozoridagi mavjud imkoniyatlar to'g'risida xabardor qilish mexanizmi yo'lga qo'yiladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ *Talabalarni mehnat bozoridagi mavjud imkoniyatlar (bo'sh ish o'rinlari, stajirovkalar, amaliyotlar, rivojlanish yo'nalishlari) bilan tanishtirish uchun qanday*

mexanizmlar (onlayn platformalar, seminarlar, uchrashuvlar, e'lonlar va boshqalar) yo'lga qo'yilgan?

❖ *Talabalarni xabardor qilish jarayonida mehnat bozori haqidagi ma'lumotlar qanday manbalardan olinadi va ularning dolzarbligi qanday ta'minlanadi?*

❖ *Xabardorlik mexanizmlarining samaradorligi qanday baholanadi va zarurat tug'ilganda ularni takomillashtirish bo'yicha qanday choralar ko'riladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xabardor qilinganligi to'g'risida ma'lumot va asoslovchi hujjatlar*

4.7. INDIKATOR

Ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalari bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlar manfaatdor tomonlar foydalanishi uchun ochiq e'lon qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid yig'ilgan ma'lumotlar qanday shaklda (hisobotlar, infografika, axborot byulletenlari va boshqalar) tayyorlanadi va e'lon qilish jarayoni qanday tartibga ega?*

❖ *Mazkur ma'lumotlar manfaatdor tomonlar (talabalar, o'qituvchilar, ish beruvchilar, bitiruvchilar va boshqalar) foydalanishi uchun qaysi platformalarda (veb-sayt, portal, axborot stendlari va boshqalar) ochiq taqdim etiladi?*

❖ *E'lon qilingan ma'lumotlardan manfaatdor tomonlar foydalanish samaradorligi qanday baholanadi va zarurat tug'ilganda axborotlarni taqdim etish mexanizmlari qanday takomillashtiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari bo'yicha ochiq axborot e'lonlari to'plami*

5. MEZON: Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilgani va uning natijalari asosida ta'lim dasturlarining takomillashtirilgani

Izoh: *Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha talabalar o'rtasida so'rovnomalar (shuningdek, intervyular, muhokamalar va talabalar fikrini o'rganishga qaratilgan boshqa tadbirlar) o'tkazilishi, natijalar tahlil qilinishi hamda ular asosida ta'lim dasturlariga tegishli o'zgartishlar kiritilishi, shuningdek, amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida talabalar xabardor etilganlik (feedback loop) darajasi o'rganiladi.*

5.1. INDIKATOR

Talabalar o'rtasida ta'lim dasturlari bo'yicha so'rovnomalarni (intervyular, muhokamalar va talabalar fikrini o'rganishga qaratilgan boshqa tadbirlar) o'tkazishning tartibi mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar o'rtasida ta'lim dasturlari bo'yicha so'rovnomalar, intervyular va muhokamalar o'tkazish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan va jarayonning asosiy bosqichlari qanday?*

❖ *So'rov va muhokamalarda qaysi metodlar qo'llanadi, ma'lumotlar qanday yig'iladi va ularning ishonchliligi qanday ta'minlanadi?*

❖ *Olingan talabalar fikrlari qanday tartibda tahlil qilinadi va ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda qanday qo'llaniladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar so'rovnomasini o'tkazish tartibi va reglamenti*

5.2. INDIKATOR

So'rovnomalar ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv va o'quv jarayonlari sifati bilan bog'liq yordamchi savollarni (masalalarni) qamrab oladi**

Yordamchi savollar:

❖ *So'rovnomalarga kiritiladigan yordamchi savollar ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv jarayonlari va o'quv jarayonlari sifati bo'yicha qaysi mezonlar asosida aniqlanadi?*

❖ *So'rovnoma yordamchi savollarining mazmuni talabalarning o'quv jarayoni va boshqaruvga doir real tajribasini aks ettirishi uchun qanday usullar qo'llanadi?*

❖ *Olingan javoblar ta'lim dasturining tashkiliy va o'quv jarayonlarini takomillashtirish uchun qanday tartibda tahlil qilinadi va natijalar asosida qanday qarorlar qabul qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *So'rovnoma shakllari va savolnoma namunasi*

5.3. INDIKATOR

So'rovnoma yordamchi savollari (masalalari) va o'tkazish jarayonlari ilmiy-metodologik asoslangan**

Yordamchi savollar:

❖ *So'rovnoma yordamchi savollarini shakllantirishda qaysi ilmiy-metodologik yondashuvlar (psixometriya, ta'lim sifatini baholash metodlari, empirik tadqiqot mezonlari va boshqalar) qo'llaniladi va ular qanday asoslangan?*

❖ *So'rovnomani o'tkazish jarayoni (respondentlar tanlovi, anonimlikni ta'minlash, yordamchi savollar ketma-ketligi, o'lchov shkalalari) ilmiy-metodologik jihatdan qanday asoslanadi?*

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda qaysi ilmiy-metodik usullar qo'llanadi va ular natijalarning ishonchliligi va obyektivligini qanday ta'minlaydi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *So'rovnoma shakllari va savolnoma namunasi*

5.4. INDIKATOR

So'rovnoma oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan davriylik asosida muntazam o'tkaziladi va so'rovnoma natijalari tizimli ravishda tahlil qilinadi**

Yordamchi savollar:

- ❖ *So'rovnomaning o'tkazishning belgilangan davriyligi qanday aniqlangan va ushbu davriylik ta'lim dasturi sifatini monitoring qilish ehtiyojlariga qanchalik mos keladi?*
- ❖ *So'rovnoma natijalari qanday tartibda yig'iladi, qayta ishlanadi va tizimli tahlil jarayonida qaysi metodlardan foydalaniladi?*
- ❖ *Tahlil natijalari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday qarorlar qabul qilinadi va ularning ijrosi qanday monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *So'rovnomalarning o'tkazilganligi tasdiqlovchi ma'lumotlar*
- ✓ *So'rovnoma natijalari bo'yicha umumiy hisobotlar va tahlil ma'lumotlari*

5.5. INDIKATOR

So'rovnoma natijalari bo'yicha muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ *So'rovnoma natijalarida aniqlangan muammolar qanday tartibda tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar qaysi mezonlar asosida belgilanadi?*
- ❖ *Belgilangan chora-tadbirlar qanday muddatlarda va kimlar tomonidan amalga oshiriladi hamda ularning bajarilishi qanday monitoring qilinadi?*
- ❖ *Ko'rilgan chora-tadbirlarning samaradorligi qanday baholanadi va zarurat tug'ilganda qo'shimcha choralar ishlab chiqish jarayoni qanday tashkil etiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *So'rovnoma natijalari asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi*

5.6. INDIKATOR

Tahlil natijalari va amalga oshirilgan chora-tadbirlar yakunlaridan kelib chiqib, ta'lim dasturiga zarur o'zgartishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tahlil natijalari va amalga oshirilgan chora-tadbirlar yakunlari qanday tartibda ko'rib chiqiladi va ta'lim dasturiga o'zgartish kiritish zarurati qanday aniqlanadi?*

❖ *Ta'lim dasturiga kiritiladigan o'zgartirishlar qanday jarayon orqali ishlab chiqiladi, muvofiqlashtiriladi va tasdiqlanadi?*

❖ *Kiritilgan o'zgartirishlarning ta'siri qanday monitoring qilinadi va zarurat tug'ilganda qo'shimcha takomillashtirish choralari belgilash mexanizmi qanday ishlaydi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturiga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumot va yangilangan ta'lim dasturi.*

5.7. INDIKATOR

Talabalar so'rovnoma natijalari va ular asosida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida xabardor qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Talabalar so'rovnoma natijalari haqida qanday shaklda (uchrashuvlar, e'lonlar, elektron pochta, platformalar) xabardor qilinadi va bu jarayonning tartibi qanday belgilangan?*

❖ *So'rovnoma natijalari asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlar talabalarga qanday tarzda yetkaziladi va ularning ochiqligi qanday ta'minlanadi?*

❖ *Talabalarning xabardorlik darajasini oshirish hamda ularning fikr bildirish jarayonini yanada samarali qilish uchun qanday mexanizmlar yo'lga qo'yilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xabardor qilinganligi to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotlar (e'lonlar, axborot maktublari, veb-sayt ma'lumotlari).*

II. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Izoh: *Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash belgilangan tartibda amalga oshirilishi, dasturning maqsad va kutilgan o'quv natijalari aniq belgilanganligi, ularning milliy malakalar ramkasi, kasbiy standartlar, davlat ta'lim standartlari va xalqaro andozalarga muvofiqligi ta'minlanganligi baholanadi. Shuningdek, ta'lim dasturi mazmuni milliy ustuvor yo'nalishlar va mehnat bozori talablariga mosligi hamda uning samaradorligi muntazam monitoring qilinib, doimiy muvofiqlashtirib borishga qaratilgan faoliyat baholanadi.*

6. MEZON: Manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti (bundan buyon matnda DTS deb yuritiladi) va milliy malakalar ramkasi (bundan buyon matnda MMR deb yuritiladi) talablariga muvofiqligi 

Izoh: *Ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilganligi, unda manfaatdor tomonlar ishtirok etganligi, ta'lim dasturi maqsadlari, o'quv natijalari*

va kompetensiyalari aniq belgilanganligi, ularning kasbiy standart va davlat ta'lim standartiga muvofiq ravishda shakllantirilganligi, shuningdek, ta'lim dasturi muhokama qilingan va belgilangan tartibda tasdiqlanganligi o'rganiladi.

6.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha tartib mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayoni qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *Ta'lim dasturi ishlab chiqilishida talabalar, professor-o'qituvchilar va ish beruvchilar fikri qanday jalb qilinadi?*

❖ *Tasdiqlangan ta'lim dasturi jamoatchilik va manfaatdor tomonlar uchun ochiq tarzda e'lon qilinadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha tartib.*

6.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturini ishlab chiqish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari va professor-o'qituvchilar ishtiroki ta'minlanib, mazkur jarayon tizimli yo'lga qo'yilgan*

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari va professor-o'qituvchilar ishtiroki qanday ta'minlanadi?*

❖ *Ushbu jarayon tizimli ravishda amalga oshirilayotganini tasdiqlovchi hujjatlar yoki bayonotlar mavjudmi?*

❖ *Ishtirokchilarning taklif va fikr-mulohazalari qanday yig'iladi, qayta ishlanadi va hisobga olinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Manfaatdor tomonlar ishtirokini tasdiqlovchi hujjatlar*

6.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilgan o'quv natijalari va kompetensiyalari aniq belgilangan hamda o'zaro uzviy bog'langan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturida maqsadlar, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalar qanday hujjatlar yoki materiallarda ifodalangan?*

❖ *Ushbu elementlarning o'zaro bog'liqligi va mosligi qanday tasdiqlanadi yoki baholanadi?*

❖ *Talabalar va professor-o'qituvchilar ushbu maqsad va natijalarni tushunishi va ulardan xabardorligi qanday ta'minlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, kompetensiyalar va baholash mezonlari).*

6.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari MMR, DTS, kasbiy standart(lar) va (yoki) xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Maqsadlar va kutilgan o'quv natijalari qaysi hujjatlar (MMR, DTS, kasbiy standartlar, xalqaro ta'lim standartlari) bilan solishtirib tasdiqlangan?*

❖ *Ta'lim dasturi ushbu standartlarga muvofiqligini qanday ichki monitoring yoki baholash jarayoni orqali tekshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, kompetensiyalar va baholash mezonlari).*

6.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturi yakunida beriladigan kvalifikatsiya(lar) ta'lim dasturida belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi yakunida beriladigan kvalifikatsiya(lar) qaysi hujjatlar yoki standartlar asosida belgilangan?*

❖ *Ushbu kvalifikatsiyalar talabalarga dastur davomida yetkazilganligini qanday tasdiqlaysiz?*

❖ *Ta'lim dasturi yakunida beriladigan kvalifikatsiya(lar)ning belgilangan me'yorlarga muvofiqligini tekshirish uchun qanday monitoring yoki baholash mexanizmi mavjud?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, kompetensiyalar va baholash mezonlari).*

6.6. INDIKATOR

Ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) va akademik profiliga muvofiq ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi va akademik profiliga qanday muvofiqlashtirilganini qanday hujjatlar orqali tasdiqlaysiz?

❖ Ushbu maqsad va natijalar ishlab chiqilishida kimlar (masalan, ish beruvchilar, soha mutaxassisleri) jalb qilingan?

❖ Ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan o'quv natijalarining strategik rejaga muvofiqligi muntazam tahlil qilinadimi va natijalar asosida yangilanish amalga oshiriladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ta'lim dasturi bo'yicha 5 yillik istiqbolli rivojlantirish rejasi (tasdiqlangan nusxasi)

✓ Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari).

6.7. INDIKATOR

Jamoatchilik, abituriyentlar va talabalar ta'lim dasturi haqida haqqoniy va xolis axborotga ega bo'lish imkoniyatiga ega**

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi haqida jamoatchilik, abituriyentlar va talabalar uchun qanday axborot resurslari (veb-sayt, broshyura, elektron platforma) mavjud?

❖ Mazkur axborot yangilanib turadimi va foydalanuvchilar uchun tushunarli shaklda taqdim etiladimi?

❖ Axborotga ega bo'lish imkoniyati bilan bog'liq talabalardan yoki abituriyentlardan fikr-mulohazalar yig'ish va tahlil qilish mexanizmi mavjudmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ta'lim dasturi bo'yicha ochiq axborot resurslari va e'lonlar reyestri.

7. MEZON: Ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani

Izoh: Ta'lim dasturining oliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va milliy rivojlanish strategiyalari asosida ishlab chiqilganligi, shuningdek, xalqaro ta'lim standartlari hamda kasbiy standartlar talablari bilan uyg'unligi, uning maqsad va vazifalarining mehnat bozori ehtiyojlari hamda milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalariga mos ravishda shakllantirilganligi o'rganiladi.

7.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturi mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlari va Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi ishlab chiqilishida mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlari va Oliy ta'lim strategik yo'nalishlari hisobga olinganligini qanday hujjatlar yoki dalillar tasdiqlaydi?*

❖ *Ta'lim dasturi mazmuni va maqsadlari ustuvor yo'nalishlarga muvofiqligini baholash uchun ichki monitoring yoki ekspert baholash mexanizmi mavjudmi?*

❖ *Ta'lim dasturining strategik maqsadlarga mosligi bo'yicha manfaatdor tomonlar (ish beruvchilar, soha mutaxassislari, professor-o'qituvchilar) fikr-mulohazalari tizimli ravishda yig'iladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturini tasdiqlanganligini asoslovchi hujjatlar*

7.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturini ishlab chiqishda xalqaro ta'lim standartlari va (yoki) DTS inobatga olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi ishlab chiqishda xalqaro ta'lim standartlari va/yo DTS hisobga olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar yoki dalillar mavjudmi?*

❖ *Xalqaro standartlar va DTS talablariga moslikni baholash uchun ichki ekspertiza yoki monitoring mexanizmi joriy etilganmi?*

❖ *Talabalar, ish beruvchilar yoki soha mutaxassislari tomonidan ta'lim dasturining xalqaro va milliy standartlarga mosligi bo'yicha fikr-mulohazalar yig'iladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari).*

7.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturida sohaga oid dolzarb ilmiy, nazariy va amaliy bilimlar o'z aksini topgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturida sohaga oid dolzarb ilmiy, nazariy va amaliy bilimlar kiritilganligini tasdiqlovchi hujjatlar yoki fan dasturlari mavjudmi?*

❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqishda sohaning zamonaviy tendensiyalari va amaliy ehtiyojlari qanday hisobga olingan?*

❖ *Talabalar va ish beruvchilar ta'lim dasturidagi sohaga oid bilimlarning dolzarbligi va amaliy foydaliligi bo'yicha fikr-mulohazalar bera oladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari).*

7.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari mamlakatdagi inson kapitalini rivojlantirish hamda ichki va xalqaro mehnat bozorining ehtiyojlariga muvofiq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari mamlakatdagi mehnat bozorining ehtiyojlari bilan qanday uyg'unlashtirilgani hujjatlashtirilganmi?*

❖ *Ichki va xalqaro mehnat bozorining ehtiyojlarini aniqlash uchun qaysi tahlil yoki so'rovlar o'tkazilgan?*

❖ *Talabalar va ish beruvchilar ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan natijalarning mehnat bozoriga mosligi bo'yicha fikr-mulohaza bera oladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari).*

7.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturining xalqaro ta'lim standartlariga mosligi bo'yicha vakolatli xorijiy ekspertlar yoki tashkilotlar tomonidan berilgan rasmiy xulosa (akkreditatsiya) mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi xalqaro ta'lim standartlariga muvofiqligi bo'yicha qaysi xorijiy ekspertlar yoki tashkilotlar tomonidan baholangan?*

❖ *Ta'lim dasturidagi o'zgarishlar yoki yangilanishlar ushbu ekspert xulosasi yoki akkreditatsiya tavsiyalariga muvofiq amalga oshirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xorijiy ekspertlar yoki tashkilot tomonidan berilgan rasmiy xulosa*

8. MEZON: Ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani

Izoh: Ta'lim dasturi bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirishni ta'minlaydigan mantiqiy izchillik va o'zaro bog'liqlik asosida ishlab chiqilganligi, shu bilan birga, dasturning barcha tarkibiy qismlari, jumladan fanlar (modullar) o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlik ta'minlangani, o'quv rejada fanlarning bosqichma-bosqich va mantiqiy izchillikda joylashtirilgani hamda ularning o'zaro bog'liqligi o'rganiladi.

8.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturining davomiyligi (umumiy kreditlar (soatlar), o'qish muddati) ushbu dasturning maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga mos ravishda belgilangan*

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturining umumiy kreditlari va soatlari dastur maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiqligini qanday asoslab belgilangani hujjatlashtirilganmi?*

❖ *O'qish muddati va semestrlar davomiyligi to'g'risidagi ma'lumotlar akademik kalendar yoki o'quv rejasida rasmiylashtirilganmi?*

❖ *Ta'lim davomiyligi va kredit hajmi bo'yicha o'quv jarayoni monitoringi olib boriladimi va natijalar asosida zarur o'zgartirishlar kiritiladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari).*

8.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturining barcha tarkibiy qismlari, shu jumladan fanlar (modullar), nazariy va amaliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot faoliyati, amaliyot va attestatsiya o'rtasida mantiqiy izchillik va uzviylik ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturidagi fanlar (modullar), nazariy va amaliy mashg'ulotlar, ilmiy-tadqiqot faoliyati, amaliyot va attestatsiya o'rtasidagi uzviylik va izchillik qanday hujjatlarda tasdiqlangan?*

❖ *Har bir komponentning (fan, amaliyot, ilmiy-tadqiqot) kutilgan o'quv natijalari va kompetensiyalar bilan uyg'unligi qanday ta'minlangan?*

❖ *Ta'lim dasturida mantiqiy izchillikni baholash va monitoring qilish tartibi mavjudmi va natijalari asosida takomillashtirish ishlari olib boriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari).*

8.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturiga kiritilgan fanlar (modullar) ta'lim dasturining kutilgan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Har bir fan (modul)ning kutilgan o'quv natijalari qanday hujjatlar orqali belgilangan va talabalarga yetkazilgan?*

❖ *Fanlar (modullar) ta'lim dasturining umumiy o'quv natijalariga erishishga qanday hissa qo'shishi tizimli ravishda baholanadimi?*

❖ *Ta'lim dasturidagi fanlar (modullar) mazmuni va o'quv natijalari asosida muntazam takomillashtirish ishlari olib boriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari).*

8.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturida boshqa ta'lim turlari bilan mantiqiy izchillik va uzviylik ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturida bakalavriat, magistratura va boshqa ta'lim turlari o'rtasida o'quv natijalari va kompetensiyalar uyg'unligi qanday ta'minlangan?*

❖ *Fanlar (modullar) va o'quv faoliyati boshqa ta'lim turidagi tarkibiy qismlar bilan mantiqiy bog'lanishi mavjudligini qanday hujjatlar tasdiqlaydi?*

❖ *Ta'lim dasturida turli ta'lim turlari o'rtasidagi izchillik va uzviylikni baholash va takomillashtirish mexanizmi mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari).*

8.5. INDIKATOR

O'quv yuklamalari fanlar (modullar) kesimida to'g'ri va o'lchovli taqsimlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Fanlar (modullar) bo'yicha o'quv yuklamalari to'g'ri va o'lchovli taqsimlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar qaysilar?*

❖ *O'quv yuklamalarini fanlar kesimida taqsimlash jarayoni qanday mezonlar va ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi?*

❖ *Taqsimlangan o'quv yuklamalari amaliyotga joriy etilganligini va talabalarning o'quv yili davomida bajarilishini qanday monitoring qilasiz?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv yuklamalarining fan/modullar kesimidagi taqsimoti, o'quv reja va fan dasturlar*

8.6. INDIKATOR

Fanlar (modullar) tarkibidagi nazariy bilim, amaliy mashg'ulot va tadqiqot ishlari o'zaro uyg'unlashgan

Yordamchi savollar:

❖ *Fanlar (modullar) tarkibidagi nazariy bilim, amaliy mashg'ulot va tadqiqot ishlarining uyg'unligini tasdiqlovchi hujjatlar yoki reja qanday?*

❖ *Nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda tadqiqot ishlarini uyg'unlashtirish jarayoni qanday usullar va mezonlar asosida amalga oshiriladi?*

❖ Ushbu uyg'unlikni monitoring qilish va baholash tartibi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ O'quv yuklamalarining fan/modullar kesimidagi taqsimoti, o'quv reja va fan dasturlar.

8.7. INDIKATOR

Mashg'ulot turlari (nazariy, amaliy, laboratoriya va boshqalar) ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq ravishda belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Mashg'ulot turlarining ta'lim dasturi mazmuniga mosligini tasdiqlovchi hujjat yoki reja qanday?

❖ Mashg'ulot turlarini belgilashda qanday mezonlar va pedagogik yondashuvlar qo'llanilgan?

❖ Belgilangan mashg'ulot turlarining amalga oshirilishi va mazmunini mosligi monitoring qilinadimi, natijalari qanday hujjatlashtiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ O'quv yuklamalarining fan/modullar kesimidagi taqsimoti, o'quv reja va fan dasturlar

9. MEZON: Amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani !

Izoh: Ta'lim dasturlarining samaradorligi tizimli ravishda monitoring qilinganligi, baholash mezonlari va usullari aniq belgilanganligi, tahlil jarayonlariga ish beruvchilar, talabalar va sohaviy mutaxassislar jalb etilganligi, monitoring natijalari asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqilganligi va ijro holati, shuningdek, natijalar elektron axborot tizimida joylashtirilib, ochiq ma'lumot sifatida foydalanish imkoniyati ta'minlanganlik darajasi o'rganiladi.

9.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturi samaradorligini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi samaradorligini baholash tartibi va mezonlarini belgilovchi ichki hujjat qaysi?

❖ Baholash mezonlari ta'lim dasturining kutilgan o'quv natijalari va kompetensiyalariga mosligini qanday tasdiqlaysiz?

❖ *Baholash natijalari muntazam tahlil qilinadimi va natijalar asosida ta'lim dasturi takomillashtiriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturlari samaradorligini baholash mezonlari va usullarini belgilovchi ichki me'yoriy hujjat.*

9.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha tizimli monitoring va tahlil jarayonlari oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan davriylikda izchil amalga oshiriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi bo'yicha monitoring va tahlil jarayonlarini belgilovchi ichki hujjat(lar) mavjudmi?*

❖ *Monitoring va tahlil qanday davriylikda va kim tomonidan amalga oshiriladi?*

❖ *Tahlil natijalari asosida aniqlangan kamchiliklar va takomillashtirish imkoniyatlari bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Monitoring va tahlil rejasi hamda reja ijrosi bo'yicha tahliliy material yoki hisobotlar.*

9.3. INDIKATOR

Monitoring jarayonida ish beruvchilar, talabalar va soha mutaxassislari ishtiroki tizimli ravishda ta'minlanadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring jarayonida ish beruvchilar, talabalar va soha mutaxassislari ishtirokini belgilovchi tartib yoki hujjat mavjudmi?*

❖ *Ishtirokchilar qanday shakllarda va qaysi bosqichlarda jalb qilinadi?*

❖ *Ularning fikr-mulohazalari monitoring natijalarini tahlil qilish va ta'lim dasturini takomillashtirish jarayonida qanday qo'llaniladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

9.4. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar tizimli ravishda ishlab chiqiladi hamda mazkur chora-tadbirlarning ijro holati nazoratga olinadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar qanday hujjat yoki rejalar orqali rasmiylashtiriladi?*

❖ *Chora-tadbirlar qaysi muddatlarda va kim tomonidan amalga oshirilishi belgilangan?*

❖ *Chora-tadbirlarning ijro holati va samaradorligi qanday tartibda nazorat qilinadi va hisoboti yuritiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi va ijro holati.*

9.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturining monitoringi va tahlili natijalaridan ochiq foydalanish imkoniyati mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturining monitoring va tahlil natijalari qaysi platforma yoki vositalar orqali ommaga taqdim etiladi?*

❖ *Natijalar ochiq e'lon qilinish tartibi va davriyligi qanday belgilanadi?*

❖ *Talabalar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar ushbu natijalardan qanday foydalanishi mumkinligi tizimli ravishda ta'minlanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ochiq e'lon qilingan monitoring materiallari reyestri*

9.6. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari asosida ta'lim dasturi, shu jumladan fanlarning (modullarning) mazmuni, o'qitish usullari va baholash tizimiga zarur o'zgartishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida ta'lim dasturiga kiritilgan o'zgartishlar qanday hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi?*

❖ *O'zgartirishlar fan (modul) mazmuni, o'qitish usullari va baholash tizimiga qanday ta'sir qilgani tizimli ravishda baholanadimi?*

❖ *Talabalar va professor-o'qituvchilarga ushbu o'zgartirishlar haqida qanday vaqtda va shaklda xabar beriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturiga kiritilgan o'zgartishlar to'g'risidagi ma'lumot va yangilangan ta'lim dasturi.*

III. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Izoh: ta'lim tashkilotida ta'lim dasturlarining maqsad va vazifalariga muvofiq o'quv reja va dastur (sillabus)larni ishlab chiqish, o'quv jarayonini belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifati va baholash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash hamda akademik halollik tamoyillariga amal qilishni qamrab olgan tizimli faoliyat baholanadi

10. MEZON: Ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani

Izoh: ta'lim dasturlari me'yoriy-uslubiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilganligi, unda, maqsad, vazifa, o'quv natijalari hamda baholash mezonlari aniq belgilanganligi o'rganiladi

10.1. INDIKATOR

O'quv reja va o'quv dasturlar (sillabuslar) ish beruvchilar, talabalar va soha mutaxassislarini jalb qilgan holda, shuningdek ularning takliflari asosida ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ O'quv reja va sillabuslarni ishlab chiqish jarayoniga ish beruvchilar, talabalar va soha mutaxassislari qanday jalb qilindi?
- ❖ Ularning bildirgan takliflari qanday yig'ildi, tahlil qilindi va o'quv hujjatlariga qanday tartibda kiritildi?
- ❖ Takliflar asosida o'quv reja yoki sillabuslarning qaysi bandlariga aniq o'zgarishlar kiritildi va ular qanday asoslangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ O'quv reja va o'quv dasturlar (sillabuslar)

10.2. INDIKATOR

O'quv reja va o'quv dasturlar MMR, DTS, kasbiy standart(lar), malaka talabi va (yoki) xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan*

Yordamchi savollar:

- ❖ O'quv reja va o'quv dasturlarni ishlab chiqishda qaysi MMR, DTS, kasbiy standartlar, malaka talablari yoki xalqaro standartlar asos qilib olindi?
- ❖ Mazkur standartlarning talablari o'quv reja va sillabuslarning qaysi bo'limlarida qanday aks ettirilgan?
- ❖ O'quv dasturlarining mazmuni standartlar talablariga mosligini ta'minlash bo'yicha qanday tartib (tahlil, solishtirish, ekspertiza) amalga oshirildi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Malaka talablari, o'quv reja, o'quv dasturi, milliy/xalqaro standartlar bilan moslik jadvali, ish beruvchilar bilan muhokama bayonnomasi*

10.3. INDIKATOR

O'quv reja va o'quv dasturlar ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiq

Yordamchi savollar:

❖ O'quv reja va o'quv dasturlar ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari bilan qanday bog'langan?

❖ Fanning o'quv natijalari umumiy ta'lim dasturining kutilgan natijalari bilan mosligi qanday aniqlangan yoki tasdiqlangan?

❖ O'quv rejadagi fanlar mazmuni va ketma-ketligi o'quv natijalariga erishishni qanday ta'minlaydi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Malaka talablari, o'quv reja, Fan(modul) dasturlari, sillabuslar.*

10.4. INDIKATOR

Fanlarning (modullarning) o'quv dasturi tegishli qonunchilikdagi o'zgarishlar va xorijiy tajribani qamrab olgan

Yordamchi savollar:

❖ O'quv dasturiga qonunchilikdagi o'zgarishlar qanday tartibda kiritiladi va bu jarayon qanday hujjatlar bilan tasdiqlanadi?

❖ Xorijiy tajribani o'quv dasturiga qo'shishda qaysi manbalar o'rganilgan va ular dastur mazmuniga qanday integratsiya qilingan?

❖ So'nggi yillarda fan dasturiga kiritilgan o'zgarishlar nimadan iborat va ular qanday ehtiyoj yoki yangilik natijasida amalga oshirilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Fan dasturlarini ishlab chiqishda xalqaro standartlar yoki namunaviy universitet dasturlariga tayanganlikni ko'rsatuvchi dalillar.*

10.5. INDIKATOR

Fanlarning (modullarning) o'quv dasturi talabalarda qattiq va yumshoq ko'nikmalarni (hard and soft skills) rivojlantirishga hamda bu orqali talabalarning shaxsiy rivojlanishi va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ O'quv dasturida talabalarda qattiq (hard) va yumshoq (soft) ko'nikmalarni rivojlantirish qanday shakllar va usullar orqali ta'minlangan?

❖ Ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi o'quv faoliyatlari (amaliyot, loyiha, muammoli vazifalar, jamoaviy ish va boshqalar) dasturda qanday aks ettirilgan?

❖ Rivojlantiriladigan ko'nikmalar mehnat bozori talablari va bitiruvchilar kasbiy kompetensiyalari bilan qanday bog'langan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv reja va o'quv dasturlar (sillabuslar)*

10.6. INDIKATOR

Fan (modul) bo'yicha baholash mezonlari aniq belgilangan bo'lib, ular fanning (modulning) maqsadi va kutilayotgan o'quv natijalariga to'liq mos hamda talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashda aniq, adolatli va shaffof tartib mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Fan (modul) bo'yicha baholash mezonlari qanday belgilangan va ular o'quv natijalari bilan qanday bog'langan?

❖ Baholash jarayonining adolatli, shaffof va xolis o'tishini ta'minlash uchun qanday mexanizmlar joriy qilingan?

❖ Talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan usullar (test, amaliy topshiriq, loyiha, og'zaki savol-javob va boshqalar) qanday tartibda qo'llanadi va ular talabalarga oldindan qanday yetkaziladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Fan (modul) bo'yicha baholash mezonlari.*

11. MEZON: O'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani !

Izoh: ta'lim tashkilotida o'quv jarayoni nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan uyg'unlashtirish orqali o'quv natijalariga to'liq yo'naltirilganligi o'rganiladi

11.1. INDIKATOR

O'quv jarayoni ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiqlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ O'quv jarayoni qanday qilib ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari bilan muvofiqlashtirilgan?

❖ Dars mashg'ulotlari va amaliyotlar kutilgan o'quv natijalariga erishishni ta'minlash uchun qanday metod va vositalar orqali tashkil etiladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv reja, o'quv dasturi (sillabuslar), semestrlik o'quv jadvali*

11.2. INDIKATOR**Ta'lim dasturi bo'yicha amaliyot bazalari mavjud*****Yordamchi savollar:**

❖ Ta'lim dasturi bo'yicha talabalar amaliyot o'tashi uchun qaysi bazalar tashkil etilgan?

❖ Amaliyot bazalari talabalar ko'nikmalarini shakllantirish va ta'lim dasturi maqsadlariga erishish uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?

❖ Amaliyot bazalarining faoliyati va foydalanish sifati qanday monitoring qilinadi va natijalari qayd etiladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ish beruvchilar bilan tuzilgan hamkorlik shartnomasi, amaliyot dasturlari.*

11.3. INDIKATOR

O'quv jarayoni ish beruvchilar va soha mutaxassislari bilan hamkorlikda mehnat bozorida zamonaviy ehtiyojlar, ilm-fandagi so'nggi tendensiyalar, sohaning xususiyatlaridan va oliy ta'lim tashkilotining amaliyot bazalari mavjudligidan kelib chiqqan holda rejalashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ O'quv jarayonini rejalashtirishda ish beruvchilar va soha mutaxassislari qanday jalb qilindi?

❖ Mehnat bozori ehtiyojlari, sohaning xususiyatlari va ilm-fandagi so'nggi tendensiyalar o'quv jarayoniga qanday aks ettirildi?

❖ Oliy ta'lim tashkilotining amaliyot bazalari o'quv jarayonida qanday qo'llaniladi va talabalar ko'nikmalarini shakllantirishga qanday xizmat qiladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ish beruvchilar bilan tuzilgan hamkorlik shartnomasi, amaliyot dasturlari.*

11.4. INDIKATOR

O'quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beruvchi amaliy mashg'ulotlar (seminar, amaliy loyihalar, laboratoriya ishlari va boshqalar), ishlab chiqarishda amaliyot va ilmiy-tadqiqot faoliyati nazarda tutiladi**

Yordamchi savollar:

❖ O'quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beruvchi qaysi mashg'ulotlar va faoliyat turlari tashkil etilgan?

❖ Amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, loyihalar va ishlab chiqarish amaliyoti talabalar ko'nikmalarini shakllantirishda qanday rol o'ynaydi?

❖ Amaliy va ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligi qanday monitoring qilinadi va natijalari qanday hujjatlarda aks ettiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Hamkorlik shartnomasi;*

✓ *O'quv dasturi, sillabus, amaliyot dasturi.*

11.5. INDIKATOR

Amaliyot natijalari bo'yicha manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini yig'ish hamda tahlil qilish amaliyoti mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ Amaliyot natijalari bo'yicha manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari qanday yig'iladi va qayd etiladi?

❖ Yig'ilgan fikr-mulohazalar amaliyot jarayonini takomillashtirishda qanday tahlil qilinadi?

❖ Natijalar asosida amaliyot dasturi yoki talaba ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha qaysi chora-tadbirlar ko'riladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Amaliyot dasturi, taqvim rejasi va baholash mezonlari;*

✓ *Amaliyot monitoringi bo'yicha hisobotlar va tahlil materiallari/so'rovnoma natijalari tahlili.*

11.6. INDIKATOR

Tahlil natijalari asosida amaliyot samaradorligi baholanadi hamda amaliyot dasturlari takomillashtirib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Amaliyot samaradorligini baholash qanday mezonlar va indikatorlar asosida amalga oshiriladi?

❖ Baholash natijalari qanday hujjatlarda qayd etiladi va monitoring qilinadi?

❖ Tahlil natijalari asosida amaliyot dasturlarini takomillashtirish jarayoni qanday tartibda olib boriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kafedra yoki fakultet yig'ilishi bayonnomasi (amaliyot dasturiga kiritilgan o'zgarishlar).*

12. MEZON: O'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani

Izoh: ta'lim tashkilotida o'quv jarayoni va ta'lim dasturlarining samaradorligini muntazam baholash tahlili asosida o'quv jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan tizimli mexanizm yo'lga qo'yilganligi o'rganiladi

12.1. INDIKATOR

O'quv jarayoni sifatini baholash, tahlil qilish va takomillashtirish tartibi ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ O'quv jarayoni sifatini baholash va tahlil qilish tartibi qanday hujjatlar orqali belgilangan?
- ❖ Baholash va tahlil jarayoni qaysi ko'rsatkichlar va mezonlar asosida amalga oshiriladi?
- ❖ Tahlil natijalari asosida o'quv jarayonini takomillashtirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'riladi va ular qanday hujjatlarda aks ettiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ O'quv jarayoni samaradorligini baholash bo'yicha tartib.

12.2. INDIKATOR

O'quv jarayoni sifatini baholash va tahlil qilish oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan davriylikda izchil amalga oshiriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ O'quv jarayoni sifatini baholash va tahlil qilish qaysi davriylikda va qanday tartibda amalga oshiriladi?
- ❖ Baholash va tahlil jarayonini kimlar (kafedra, fakultet, ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi) amalga oshiradi va natijalar qanday hujjatlashtiriladi?
- ❖ Izchil baholash natijalari asosida o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumot

12.3. INDIKATOR

Baholash jarayonida manfaatdor tomonlar ishtiroki tizimli ravishda ta'minlab boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Baholash jarayonida qaysi manfaatdor tomonlar (talabalar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari) ishtirok etadi?

❖ Ularning ishtiroki qanday shakllarda (so'rov, intervyu, muhokama, forum va hokazo) tizimli ravishda ta'minlanadi?

❖ Manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari baholash natijalariga qanday aks ettiriladi va qanday hujjatlarda qayd etiladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Manfaatdor tomonlar (ish beruvchi, talaba, bitiruvchi, xodim) ishtiroki ta'minlanganligi bo'yicha ma'lumot.*

12.4. INDIKATOR

Baholash va tahlil qilish natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Baholash va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklar qanday hujjatlarda qayd etiladi?

❖ Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilanadi va kim tomonidan amalga oshiriladi?

❖ Chora-tadbirlar samaradorligi qanday monitoring qilinadi va natijalari hisobotlarda qanday aks ettiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi.*

12.5. INDIKATOR

O'quv jarayonidagi baholash va tahlil qilish natijalari hamda amalga oshirilgan chora-tadbirlar asosida ta'lim dasturi va oliy ta'lim tashkilotining metodik hujjatlari doimiy ravishda takomillashtirib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Baholash va tahlil natijalari asosida ta'lim dasturi va metodik hujjatlar qanday tarzda takomillashtiriladi?

❖ Takomillashtirish jarayoni kimlar tomonidan amalga oshiriladi va qanday tartibda hujjatlashtiriladi?

❖ Doimiy takomillashtirish natijalari qaysi hujjatlarda aks ettiriladi va monitoring qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Takomillashtirilgan ta'lim dasturlari va o'quv metodik hujjatlar.*

13. MEZON: Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani

Izoh: ta'lim tashkilotida o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarning joriy etilganligi, ularning samaradorligi tahlil qilinishi va natijalar asosida metodik materiallar doimiy ravishda takomillashtirib borilganligi o'rganiladi

13.1. INDIKATOR

Dars jarayonlarida yangi o'qitish usullari, ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar (bundan buyon matnda ilg'or pedagogik yondashuvlar deb yuritiladi) muntazam qo'llaniladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Dars jarayonlarida ilg'or pedagogik yondashuvlar qaysi shakllarda (ma'ruza, seminar, loyiha, laboratoriya ishlari va boshqalar) qo'llaniladi?
- ❖ Ilg'or pedagogik yondashuvlarning samaradorligi va talabalarning o'quv natijalariga ta'siri qanday baholanadi?
- ❖ Yangi o'qitish usullari va ilg'or pedagogik yondashuvlar joriy etilishi va monitoringi qanday hujjatlar orqali tasdiqlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilganligi bo'yicha tahliliy ma'lumot.

13.2. INDIKATOR

Ilg'or pedagogik yondashuvlar fanlar (modullar) mazmunini chuqur o'zlashtirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga samarali erishishga qaratilgan**

Yordamchi savollar:

- ❖ Ilg'or pedagogik yondashuvlar talabalarda qaysi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan va bu qanday o'lchanadi?
- ❖ Fanlar (modullar) mazmunini chuqur o'zlashtirish va o'quv natijalariga erishish samaradorligi qanday monitoring qilinadi?
- ❖ Ilg'or pedagogik yondashuvlar joriy etilishi va uning natijalari qaysi hujjatlar yoki tahlil hisobotlarida aks ettiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilganligi bo'yicha tahliliy ma'lumot.

13.3. INDIKATOR

Ilg'or pedagogik yondashuvlar ta'lim shakli va talabalar ehtiyojlariga muvofiq holda belgilanadi**

Yordamchi savollar:

❖ Ilg'or pedagogik yondashuvlar qaysi ta'lim shakllarida (kunduzgi, sirtqi, kechki, onlayn) qo'llanadi?

❖ Talabalar ehtiyojlari va xususiyatlari ilg'or pedagogik yondashuvlarni tanlashda qanday hisobga olinadi?

❖ Ilg'or pedagogik yondashuvlarning ta'lim shakli va talabalar ehtiyojlariga muvofiqligi qaysi hujjatlar yoki monitoring natijalari orqali tasdiqlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilganligi bo'yicha tahliliy ma'lumot.*

13.4. INDIKATOR

Ilg'or pedagogik yondashuvlar samaradorligi bo'yicha muntazam monitoring va tahlil olib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Ilg'or pedagogik yondashuvlarning samaradorligi qanday mezonlar va ko'rsatkichlar asosida monitoring qilinadi?

❖ Monitoring va tahlil natijalari qanday shakllarda hujjatlashtiriladi va kim tomonidan amalga oshiriladi?

❖ Aniqlangan kamchiliklar va takomillashtirish imkoniyatlari asosida ilg'or pedagogik yondashuvlar qanday yangilanadi yoki takomillashtiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilganligi bo'yicha tahliliy ma'lumot;*

✓ *Dars jarayonlari monitoring natijalari (dars kuzatish tahlillari/varaqalari)*

13.5. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ilg'or pedagogik yondashuvlar bo'yicha professor-o'qituvchilarning salohiyati doimiy ravishda rivojlantiriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Monitoring va tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklar qanday hujjatlarda qayd etiladi va kim tomonidan tahlil qilinadi?

❖ Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun professor-o'qituvchilar salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi?

❖ Salohiyatni rivojlantirish natijalari va ilg'or pedagogik yondashuvlarning takomillashtirilishi qanday hujjatlar yoki hisobotlarda aks ettiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ OTT/Fakultet/Kafedralar doirasidagi pedagogik texnologiyalar bo'yicha uslubiy seminarlar/bayonnomalar/OTT sayti yoki rasmiy ijtimoiy tarmog'ida o'quv seminarlari o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar

13.6. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari asosida o'quv reja, o'quv dasturlari va metodik materiallar yangilanadi, shuningdek ilg'or pedagogik yondashuvlar bo'yicha metodik qo'llanmalar va o'quv materiallari muntazam ishlab chiqiladi hamda amaliyotga joriy etiladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Monitoring va tahlil natijalari asosida o'quv reja, o'quv dasturlari va metodik materiallar qanday yangilanadi va kim tomonidan tasdiqlanadi?
- ❖ Ilg'or pedagogik yondashuvlar bo'yicha metodik qo'llanmalar va o'quv materiallari qanday ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi?
- ❖ Yangilangan dastur va metodik materiallar talaba va professor-o'qituvchilar uchun qanday qilib yetkaziladi va foydalanilishi ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tahliliy ma'lumot.

13.7. INDIKATOR

Ilg'or pedagogik yondashuvlar samaradorligi bo'yicha yillik tahliliy hisobot tayyorlanadi va oliy ta'lim tashkilotining kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Ilg'or pedagogik yondashuvlar samaradorligi bo'yicha yillik tahliliy hisobot qanday shaklda tayyorlanadi va kim tomonidan tuziladi?
- ❖ Tahliliy hisobotda qaysi ko'rsatkichlar, natijalar va kamchiliklar aks ettiriladi?
- ❖ Oliy ta'lim tashkilotining kengashi hisobotni qanday ko'rib chiqadi va uning tavsiyalari yoki qarorlari amaliyotga qanday joriy etiladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Yillik tahliliy hisobot, OTT Kengashi bayonnomalari

14. MEZON: Ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi

Izoh: ta'lim tashkilotida talabalar bilimni rasmiy tasdiqlangan baholash tartibi asosida shaffof, adolatli va xolis baholash yo'lga qo'yilganligi, baholash mezonlari va usullari ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalari bilan bog'langanligi, hamda baholash natijalarining rasmiy ravishda qayd etilishi va talabalar uchun ochiqligi ta'minlanganligi o'rganiladi

14.1. INDIKATOR

Baholash jarayonlarini samarali tashkil etish uchun tartib va mexanizmlar ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Baholash jarayonlarini samarali tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan tartib va mexanizmlar qanday hujjatlarda belgilangan?
- ❖ Ushbu tartib va mexanizmlar amaliyotda qanday qo'llaniladi va monitoring qilinadi?
- ❖ Aniqlangan muammolar yoki kamchiliklar asosida baholash jarayonlari qanday yangilanadi yoki takomillashtiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Imtihonlar va baholash jarayonini tashkil etish tartibi*

14.2. INDIKATOR

Baholash tartibi (qoidalari), mezonlari, usullari va yondashuvlari har bir fan (modul) boshlanishidan oldin talabalarga e'lon qilib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Har bir fan (modul) uchun baholash tartibi, mezonlari va usullari qanday hujjatlarda belgilangan va tasdiqlangan?
- ❖ Baholash mezonlari va yondashuvlari talabalarga qaysi shaklda va qanday muddatda e'lon qilinadi?
- ❖ Talabalar tomonidan e'lon qilingan baholash mezonlari va usullariga oid fikr-mulohazalar qanday yig'iladi va amaliyotga joriy qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Sillabus (baholash tartibi va mezonlari aks ettirilgan)*

14.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturida formativ (jarayon davomida baholash) va summativ (yakuniy baholash) baholashni ta'minlovchi yondashuv va vositalar qo'llaniladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturida formativ va summativ baholashni ta'minlovchi yondashuvlar va vositalar qanday hujjatlar yoki metodik ko'rsatmalar bilan tartibga solingan?
- ❖ Formativ va summativ baholash jarayonlari amaliyotda qanday amalga oshiriladi va monitoring qilinadi?
- ❖ Baholash natijalari asosida o'quv jarayoni yoki ta'lim dasturi qanday takomillashtiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):✓ *Fan dasturi (sillabus)***14.4. INDIKATOR**

Baholash mezonlari fan (modul) va ta'lim dasturining kutilgan o'quv natijalariga asoslanadi hamda talabalarga aniq va tushunarli tarzda yetkazib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Baholash mezonlari fan (modul) va ta'lim dasturining kutilgan o'quv natijalariga qanday bog'langan va qaysi hujjatlarda belgilangan?

❖ Talabalarga baholash mezonlari qanday shakl va vositalar orqali aniq va tushunarli tarzda yetkaziladi?

❖ Talabalar mezonlarni tushunganligini tasdiqlash yoki baholash jarayoniga oid fikr-mulohazalarni yig'ish mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Sillabus (baholash mezonlari va kutilayotgan o'quv natijalari bilan bog'lanishi ko'rsatilgan)*

14.5. INDIKATOR

Baholash jarayonida adolat, shaffoflik va akademik halollik tamoyillariga qat'iy rioya etiladi**

Yordamchi savollar:

❖ Baholash jarayonida adolat, shaffoflik va akademik halollik tamoyillari qanday hujjatlar va ichki tartiblar bilan ta'minlanadi?

❖ Talabalar baholash jarayonining shaffof va adolatli bo'lganligiga qanday shakllarda ishonch hosil qiladilar?

❖ Akademik halollikni buzish holatlari aniqlanganda qanday tekshiruv, hisobot va chora-tadbirlar amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollikni ta'minlovchi ichki hujjat*

15. MEZON: Talabalarining baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi

Izoh: ta'lim tashkilotida talabalarining baholash jarayoni bo'yicha qoniqish darajasi va takliflarini yig'ish, tahlil qilish hamda ular asosida o'quv jarayonini takomillashtirish choralari ko'rish tizimi yo'lga qo'yilganligi va apellyatsiya berish tartibi ochiq, oshkora va shaffoflik prinsiplariga muvofiq amalga oshirilishi o'rganiladi

15.1. INDIKATOR

Talabalarining baholash natijalari yuzasidan takliflari, fikr-mulohazalari va shikoyatlarini yig'ish, ko'rib chiqish va tahlil qilish, shuningdek ushbu masalalarni bajarish uchun mas'ul ijrochilarni belgilash bo'yicha tartib ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ Talabalarining baholash natijalari yuzasidan fikr-mulohazalari, taklif va shikoyatlarini yig'ish va tahlil qilish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan?

❖ Fikr-mulohazalarni ko'rib chiqish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar qanday tarzda tayinlangan?

❖ Talabalar fikr-mulohazalari va shikoyatlari asosida baholash jarayonini yaxshilash bo'yicha qaysi amaliy choralar ko'riladi va natijalari qanday hujjatlantiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollikni ta'minlovchi ichki hujjat, tegishli buyruqlar (farmoyishlar)*

15.2. INDIKATOR

Ishlab chiqilgan tartibda shikoyat berish shakllari, muddatlari, ularni ko'rib chiqish tartibi va qaror qabul qilish mexanizmi aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Shikoyat berish shakllari va muddatlari qanday hujjatlar yoki ichki tartibda belgilangan?

❖ Shikoyatlarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish mexanizmi qanday tashkil etilgan?

❖ Shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonida adolat, shaffoflik va javobgarlik tamoyillari qanday ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollikni ta'minlovchi ichki hujjat*

15.3. INDIKATOR

Takliflar, fikr-mulohazalar va shikoyatlar talabalar uchun qulay sharoitlarda va ularning ehtiyojlariga mos shakllar orqali qabul qilinadi hamda ularni ko'rib chiqish jarayoni shaffoflik, hisobdorlik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Talabalar taklif, fikr-mulohaza va shikoyatlarini taqdim etishi uchun qanday qulay shakllar va kanallar mavjud?

❖ Taklif va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayoni shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari asosida qanday tashkil etilgan?

❖ Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun ko'riladigan chora-tadbirlar qanday hujjatlarda yoki tartibda belgilangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollikni ta'minlovchi ichki hujjat*

✓ *Fikr-mulohazalar ro'yxatlari va jurnallari*

✓ *Fikr-mulohaza to'plash tizimi (anketalar, so'rovnomalar, onlayn forma) natijalari/Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi ma'lumoti/hisoboti*

15.4. INDIKATOR

Talabalarning baholash jarayoni, natijalari bo'yicha shikoyatlari oliy ta'lim tashkilotining apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tizimli ravishda tahlil qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ Apellyatsiya komissiyasi tomonidan talabalarning baholash natijalari bo'yicha shikoyatlari qanday tartibda qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi?

❖ Apellyatsiya natijalari va talabalarning shikoyatlari bo'yicha tizimli tahlil qanday amalga oshiriladi va kim tomonidan tasdiqlanadi?

❖ Shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonida adolat, shaffoflik va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish tamoyillari qanday ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar bilimini baholash tartibi/Nazorat turlarni o'tkazish tartibi/Apellyatsiya berish tartibi to'g'risidagi ichki hujjat*

15.5. INDIKATOR

Tahlil natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlanadi hamda baholash jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi, baholash tartibi va mezonlariga zarur o'zgartirishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Baholash jarayoni natijalari bo'yicha tayyorlangan tahliliy hisobotlar qanday shaklda rasmiylashtiriladi va kim tomonidan tasdiqlanadi?

❖ Tahlil natijalari asosida baholash tartibi va mezonlariga kiritilgan o'zgarishlar qanday hujjatlar orqali tasdiqlanadi va amalga oshiriladi?

❖ Baholash jarayonini takomillashtirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar qanday monitoring qilinadi va natijalari kim tomonidan nazorat qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Monitoring va tahlil hisobotlari*
- ✓ *Kiritilgan o'zgartishlar haqidagi OTT kengashi/Uslubiy kengash/Fakultet kengashi qarori*

16. MEZON: Ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi !

Izoh: ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalari rasmiy ravishda belgilab qo'yilgan, talabalar va o'qituvchilarning akademik adolat madaniyatini oshirish tadbirlari muntazam o'tkaziladi, plagiatga qarshi nazorat tizimi yo'lga qo'yilgan va qoidalarini buzganlar uchun adolatli, shaffof jazo choralari amalda ta'minlanganligi o'rganiladi

16.1. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnoma(lar) mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ Akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid tartib yoki yo'riqnomalar qaysi ichki hujjatlar orqali tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan?
- ❖ Professor-o'qituvchilar va talabalar ushbu qoidalar bilan qanday tarzda tanishtiriladi va ularni bajarishi nazorat qilinadi?
- ❖ Akademik halollik va etikaga rioya qilinishi bo'yicha monitoring qanday olib boriladi va aniqlangan holatlar bo'yicha qanday chora-tadbirlar qo'llaniladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Akademik halollik qoidalari to'g'risidagi ichki hujjat*

16.2. INDIKATOR

Akademik halollik tamoyillari ta'lim dasturini ishlab chiqish, o'qitish, baholash va tadqiqot faoliyati jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya qilinadi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Akademik halollik tamoyillari o'quv dasturlari va sillabuslarda qanday tarzda aks ettirilgan va professor-o'qituvchilar tomonidan amalda qo'llaniladimi?
- ❖ Talabalar baholash va ilmiy-tadqiqot faoliyatida akademik halollik tamoyillariga rioya qilayotganligi qanday nazorat qilinadi?
- ❖ Aniqlangan akademik halollikka zid holatlar bo'yicha qaysi chora-tadbirlar belgilanadi va ularning samaradorligi qanday tahlil qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollik qoidalari to'g'risidagi ichki hujjatning ta'lim dasturi hujjatlariga integratsiya qilinganini tasdiqlovchi dalillar*

16.3. INDIKATOR

Plagiat va boshqa akademik halollik qoidalari buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha anti-plagiat tizimi va tashkiliy choralar joriy etib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim tashkilotida plagiat va boshqa akademik halollik qoidalarini aniqlash uchun qaysi anti-plagiat tizimi joriy etilgan va undan foydalanish tartibi qanday?
- ❖ Talabalar va professor-o'qituvchilar plagiatni oldini olish bo'yicha qaysi tashkiliy choralar bilan tanishtirilgan va bu choralar amaliyotda qanday qo'llaniladi?
- ❖ Aniqlangan plagiat yoki boshqa halollik qoidalari buzilish holatlari bo'yicha qaysi chora-tadbirlar amalga oshiriladi va ularning natijalari qanday tahlil qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Anti-plagiat tizimi bo'yicha rasmiy joriy etilgan tartib (yo'riqnoma) yoki anti-plagiat dasturidan o'tkazilgan tekshiruv hisobotlari*

16.4. INDIKATOR

Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilash bo'yicha shaffof tartib mavjud**

Yordamchi savollar:

- ❖ Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini aniqlash va qayd etish tartibi qanday tashkil etilgan?
- ❖ Aniqlangan holatlar bo'yicha javobgarlik choralari belgilash va amalga oshirish mexanizmi qanday shaffoflik tamoyillari asosida ishlaydi?
- ❖ Akademik halollikni buzganlar bo'yicha qabul qilingan qarorlar va chora-tadbirlar natijalari qanday tarzda tahlil qilinadi va rasmiylashtiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollik qoidalari to'g'risidagi ichki hujjat*

16.5. INDIKATOR

Talabalar va professor-o'qituvchilar akademik halollik va etika qoidalari bilan tanishtirilgan**

Yordamchi savollar:

- ❖ Talabalar va professor-o'qituvchilar akademik halollik va etika qoidalari bilan qanday shakllarda tanishtirilgan (seminar, trening, yo'riqnoma, elektron platforma)?

❖ Tanishtirish jarayoni muntazamlik va huquqiy asoslar (ichki me'yoriy hujjatlar) nuqtai nazaridan qanday nazorat qilinadi?

❖ Talabalar va professor-o'qituvchilarning akademik halollik va etika qoidalarini tushunishi va rioya qilishi qanday tarzda baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollik qoidalari to'g'risidagi ichki hujjat bilan tanishtirilganlik haqida ma'lumot*

16.6. INDIKATOR

Talabalar va professor-o'qituvchilar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha muntazam ravishda treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) tashkil etiladi**

Yordamchi savollar:

❖ Treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) talabalarga va professor-o'qituvchilarga qanday tartibda va qachon tashkil etiladi?

❖ Treninglar mazmuni akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi masalalarini qamrab oladimi?

❖ Treninglar samaradorligi va ishtirokchilarning bilim darajasi qanday baholanadi va natijalari asosida qanday takomillashtirish choralari ko'riladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollik va etika bo'yicha treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) o'tkazilganligi haqida ma'lumot va ishtirokchilar ro'yxati*

16.7. INDIKATOR

Talabalar va professor-o'qituvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g'oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar himoya qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ Talabalar va professor-o'qituvchilarning yaratilgan ilmiy ishlari, ixtirolari va intellektual mulk obyektlari huquqlari qanday himoyalangani?

❖ Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatga olish, patentlash va litsenziyalash tartibi mavjudmi?

❖ Himoya choralari samaradorligi qanday baholanadi va huquq buzilish hollari yuzaga kelganda qanday choralar ko'riladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Mualliflik huquqi va intellektual mulk bo'yicha rasmiy ichki hujjat (nizom yoki tartib)

IV. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Izoh: ta'lim dasturi doirasida qabul jarayonlarining shaffof va aniq belgilanganligi, qabul parametrlarining ta'lim muassasasi resurs va imkoniyatlariga mosligi, talabalarni qabul qilish mezonlarining ta'lim dasturi darajasiga mosligi, o'qish jarayonida talabalar harakatlanishini tartibga soluvchi mexanizmlar (ko'chirish, kursdan kursga o'tkazish, qayta tiklash va h.k.)ning mavjudligi, shuningdek talabalarni ijtimoiy, akademik va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilganligi bilan tavsiflanadigan faoliyat baholanadi

17. MEZON: Ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani

Izoh: ta'lim dasturi bo'yicha o'qishga qabul qilish talablari aniq belgilanganligi, qonunchilik va ta'lim muassasasi ichki hujjatlariga mos ravishda ishlab chiqilganligi hamda qabul jarayonlarining ochiq, shaffof va barcha talabgorlar uchun teng imkoniyatlar ta'minlanganligi o'rganilgan

17.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturiga qabul qilish mezonlari va talablari aniq belgilangan, barcha abituriyentlar va manfaatdor tomonlarga ochiq tarzda yetkazish mexanizmi mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ Qabul qilish mezonlari va talablari qanday hujjatlar bilan belgilangan va ular qaysi platformalar orqali e'lon qilinadi?
- ❖ Barcha abituriyentlar va manfaatdor tomonlar uchun qabul mezonlari va talablariga rioya qilinishini ta'minlash tartibi qanday amalga oshiriladi?
- ❖ Qabul mezonlari va talablari bo'yicha tushunmovchilik yoki shikoyat yuzaga kelganda qanday mexanizm mavjud?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Qabul qilish to'g'risidagi ichki hujjat va tartib-qoidalarining OTT rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida e'loni (havolalar)

17.2. INDIKATOR

Qabul jarayonlari, talablari va mezonlarining amaldagi qonunchilik talabalariga muvofiqligi ta'minlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Qabul jarayonlari, talablari va mezonlari amaldagi qonunchilikka qanday mos kelishi hujjatlar orqali qanday tasdiqlanadi?

❖ Qabul jarayonlarida qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta'minlash uchun qanday ichki tartib va nazorat mexanizmlari joriy etilgan?

❖ Qonunchilik talablariga zid holatlar aniqlanganda qanday chora-tadbirlar qo'llaniladi va bu jarayon qayd etiladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qabul hujjatlari amaldagi qonunchilikda belgilangan minimal talabalarni bajarilganligini asoslovchi hujjatlar*

17.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturining qabul talablari oliy ta'lim tashkilotining ichki tartibiga, shu jumladan talabalar mobilligi, kreditlarni tan olish va avvalgi ta'lim natijalarini e'tirof etish qoidalariga muvofiq

Yordamchi savollar:

❖ Qabul talablari va mezonlari oliy ta'lim tashkilotining ichki tartibiga qanchalik muvofiq ekanligi qanday hujjatlar orqali tasdiqlanadi?

❖ Talabalar mobilligi, kreditlarni tan olish va avvalgi ta'lim natijalarini e'tirof etish qoidalariga qabul jarayonida qanday qo'llaniladi?

❖ Ichki tartibga zid holatlar aniqlanganda qanday chora-tadbirlar ko'riladi va bu jarayon qayd etiladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Hamkorlik shartnomalari, Ta'lim dasturi uchun belgilangan qabul mezonlari va talablari*

17.4. INDIKATOR

Abituriyentlar qabul natijalari haqida o'z vaqtida va ochiq ma'lumot olish imkoniyatiga ega

Yordamchi savollar:

❖ Abituriyentlar qabul natijalari haqida ma'lumotni qaysi vositalar orqali (veb-sayt, elektron tizim va h.k.) olishlari mumkin?

❖ Qabul natijalari talabalarga o'z vaqtida yetkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar yoki qaydlar mavjudmi?

❖ Ma'lumotlar ochiqligi va adolatligini ta'minlash uchun qanday mexanizmlar va monitoring tartibi joriy etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Abituriyentlar uchun axborot bukletlari va veb-sayt ma'lumotlari*

17.5. INDIKATOR

Qabul jarayoni va natijalar bo'yicha shikoyat berish mexanizmi mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ Abituriyentlar qabul jarayoni va natijalari bo'yicha shikoyat yoki apellyatsiya berish imkoniyatiga ega ekanligini qanday tasdiqlash mumkin?
- ❖ Shikoyat berish shakllari, muddatlari va ularni ko'rib chiqish tartibi belgilangan hujjatlar mavjudmi?
- ❖ Shikoyatlar va apellyatsiyalar bo'yicha qaror qabul qilish va natijalarni tizimli ravishda tahlil qilish amaliyoti mavjudmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Apellyatsiya tartibi va murojaatlar reyestri*

17.6. INDIKATOR

Xorijiy tilda olib boriladigan ta'lim dasturi qabulida nomzodlardan milliy yoki xalqaro talablarga mos xorijiy til bo'yicha bilim darajasi talab etiladi**

(Bunda abituriyentlarning dasturga qabul qilinmasdan oldin xorijiy til bo'yicha yetarli salohiyatga ega ekanligi xorijiy til bo'yicha bilimlarni tasdiqlovchi hujjat orqali aniqlanadi)

Yordamchi savollar:

- ❖ Abituriyentlardan xorijiy tilda olib boriladigan ta'lim dasturiga qabul qilishda talab etiladigan til darajasi qanday hujjatlar bilan tasdiqlanadi?
- ❖ Xorijiy til bo'yicha bilim darajasini aniqlash tartibi va mezonlari mavjudmi va ular abituriyentlarga yetkazilganmi?
- ❖ Abituriyentlarning til salohiyati talab darajasiga mos kelmagan hollarda qo'llaniladigan choralar belgilanganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Qabul komissiyasi tarkibi va bayonnomalari/xorijiy til sertifikatlari nusxalari*

17.7. INDIKATOR

Ta'lim dasturiga qabul talablari avvalgi yillarda qabul qilingan talabalarni formativ va summativ baholashdagi natijalari asosida tizimli qayta ko'rib chiqiladi va zarur o'zgartirishlar kiritiladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ O'tgan yillardagi talabalar baholash natijalari (formativ va summativ) tizimli ravishda qayta tahlil qilinadimi?
- ❖ Baholash natijalari asosida qabul talablari va mezonlariga qanday o'zgarishlar kiritilgan?

❖ Qabul talablari va mezonlaridagi o'zgarishlar abituriyentlar va manfaatdor tomonlarga yetkazilganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Qabul talablari yangilanganini tasdiqlovchi tegishli ma'lumotnomalar

18. MEZON: Qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi !

Izoh: qabul parametrlari (talabalar soni, yo'nalishlar kesimidagi kvotalar va boshqalar) ta'lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi, inson resurslari, infratuzilmasi va moliyaviy imkoniyatlariga mos ravishda belgilanganligi hamda ularning bajarilishi muntazam ravishda tahlil qilib borilishi o'rganiladi

18.1. INDIKATOR

Qabul parametrlari (talabalar soni, yo'nalishlar kesimidagi kvotalar va boshqalar) oliy ta'lim tashkilotining auditoriyalari, laboratoriyalari, amaliyot bazalari, texnikaviy jihozlanishi hamda ta'lim, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va sog'lomlashtirish faoliyatini ta'lim dasturida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan infratuzilma quvvatiga mos ravishda belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Qabul parametrlari (talabalar soni va yo'nalishlar kesimidagi kvotalar) ta'lim tashkilotining auditoriya, laboratoriya va amaliyot bazalari sig'imiga mos keladimi?

❖ Qabul parametrlari va kvotalar talaba kontingentining ta'lim dasturidagi maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlariga javob beradimi?

❖ Qabul parametrlari va infratuzilma quvvati muntazam ravishda monitoring qilinadimi va zarur o'zgartirishlar kiritiladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Yillik qabul rejasi va kvotalar haqidagi hujjatlar/amaldagi qonunchilikda belgilangan minimal talablarning bajarilganligi haqidagi asosnoma (qiyoslama jadval)

✓ Ta'lim muassasasining moddiy-texnik baza to'g'risidagi hisoboti

✓ Tegishli jadvallar

18.2. INDIKATOR

Qabul parametrlarini belgilashda axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) imkoniyatlari (sig'imi) hisobga olingan

Yordamchi savollar:

❖ Qabul parametrlarini belgilashda ARM (kutubxona) resurslari va sig'imi hisobga olinganmi?

❖ ARMdagi o'quv va ilmiy adabiyotlar talaba kontingenti ehtiyojiga javob beradimi?

❖ ARM imkoniyatlari va resurslari muntazam monitoring qilinib, qabul parametrlarini belgilashda yangilanishlar kiritiladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Axborot-resurs markazi to'g'risidagi ma'lumot*

18.3. INDIKATOR

Qabul parametrlari professor-o'qituvchilar soni, tarkibi va ularning ish yuklamasini tahlil qilish asosida belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Qabul parametrlari professor-o'qituvchilar soni va tarkibi hisobga olinib belgilanganmi?

❖ Professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi tahlil qilinib, qabul kvotalari shu asosda moslashtirilganmi?

❖ Qabul parametrlari belgilanishida professor-o'qituvchilarning malakasi va fan profili hisobga olinganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlar soni va fanlar bo'yicha yuklama tahlili/taqsimoti*

✓ *Tegishli jadvallar*

18.4. INDIKATOR

Moliyaviy imkoniyatlardan (budjet, grantlar, kontrakt tushumlari) kelib chiqqan holda qabul parametrlari shakllantirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Qabul parametrlari belgilanishida ta'lim tashkilotining moliyaviy imkoniyatlari (budjet, grantlar, kontrakt tushumlari) hisobga olinganmi?

❖ Moliyaviy resurslar asosida qabul kvotalari va yo'nalishlar soni rejalashtirilganmi?

❖ Qabul parametrlarini moliyaviy imkoniyatlarga moslashtirish bo'yicha tahlil va qarorlar mavjudmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Moliyaviy imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot*

✓ *Tegishli jadvallar*

18.5. INDIKATOR

Qabul parametrlari oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) va akademik profili bilan uyg'unlashtirilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Qabul parametrlari oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi va missiyasi bilan uyg'unlashtirilganmi?
- ❖ Qabul kvotalari va yo'nalishlari akademik profil va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga mos keladimi?
- ❖ Qabul parametrlarini strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha rasmiy hujjatlar yoki qarorlar mavjudmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi*

18.6. INDIKATOR

Qabul parametrlari sohaviy mehnat bozori tahlili, ish beruvchilarning taklif va ehtiyojlari asosida belgilangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Qabul parametrlari belgilanishida sohaviy mehnat bozori tahlillari va ish beruvchilar fikrlari hisobga olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudmi?
- ❖ Ish beruvchilarning talablari va ehtiyojlari qabul kvotalari va yo'nalishlariga qanday integratsiya qilingan?
- ❖ Sohaviy mehnat bozori tahlili va ish beruvchilarning tavsiyalari asosida qabul parametrlarini yangilash va takomillashtirish mexanizmi mavjudmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Qabul parametrlarini shakllantirishda mehnat bozori tahlili, ish beruvchilarning takliflari inobatga olinganligi bo'yicha ma'lumot*

18.7. INDIKATOR

Qabul parametrlarini bajarilish holati bo'yicha har yili tahlil amalga oshiriladi hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur o'zgartishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Qabul parametrlarining bajarilishi bo'yicha yillik tahlil o'tkaziladimi va uning natijalari hujjatlashtiriladimi?
- ❖ Tahlil natijalari asosida qabul parametrlari va kvotalarga o'zgartirishlar kiritish tartibi mavjudmi?

❖ Qabul parametrlarini takomillashtirish bo'yicha aniqlangan tavsiyalar va qarorlar manfaatdor tomonlarga yetkaziladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qabul rejasi bo'yicha tahliliy hisobotlar*

19. MEZON: Talabalarning o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash (bundan buyon matnda talabalar harakati deb yuritiladi) tartibining belgilangani 

Izoh: talabalarning o'qish jarayonidagi harakati, shu jumladan o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (yoki qoldirish), o'qishdan chetlatish va qayta tiklash aniq me'yorlar va tartib-qoidalar asosida belgilanganligi, ular haqida talabalar xabardor qilinganligi hamda ushbu jarayonlar shaffof va adolatli ravishda amalga oshirilganligi o'rganiladi

19.1. INDIKATOR

Talabalar harakati bo'yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom) o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ Talabalar harakati bo'yicha ichki hujjatlar (qoidalar, tartib, nizom) mavjudmi va ular amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda ishlab chiqilganmi?

❖ O'qishga qabul qilish, kursdan kursga o'tkazish, o'qishni qayta tiklash va chetlashtirish jarayonlari belgilangan tartibda amalga oshiriladimi?

❖ Talabalar harakati bilan bog'liq qarorlar shaffof va adolatli tarzda qabul qilinishi va talabalarga yetkazilishi ta'minlanganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash to'g'risidagi ichki hujjatlar*

19.2. INDIKATOR

Talabalar harakatiga oid jarayonlar va qarorlar bo'yicha shikoyat berish imkoniyati mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Talabalar harakati bilan bog'liq qarorlar bo'yicha shikoyat berish mexanizmi mavjudmi?

❖ Shikoyatlar talabalarga qulay shakllarda qabul qilinadimi va belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladimi?

❖ Shikoyatlar tahlil qilinib, natijalari asosida talabalar harakati jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'riladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar harakati haqidagi ichki hujjatlar*

19.3. INDIKATOR

Talabalar harakati bo'yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom), talabalar harakati jarayonlari va natijalari to'g'risida talabalar va ularning ota-onalari xabardor qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ Talabalar va ularning ota-onalari talabalarning harakati jarayonlari va natijalari haqida xabardor qilinadimi?

❖ Talabalar harakati bo'yicha ichki hujjatlar (qoidalar, tartib, nizom) mavjud va ular oshkoralik tamoyili asosida e'lon qilinadimi?

❖ Talabalar va ota-onalar ushbu hujjatlar va jarayonlar bo'yicha ma'lumot olish imkoniyatiga ega ekanliklarini qanday tasdiqlash mumkin?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalarga axborot yetkazish materiallari (veb-sayt va boshqalar)*

19.4. INDIKATOR

Talabalar harakati bo'yicha qabul qilingan qarorlar asoslantirilgan holda hujjatlashtiriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Talabalar harakati bo'yicha qabul qilingan qarorlar hujjatlashtirilgan va asoslantirilganmi?

❖ Qarorlarni hujjatlashtirishda normativ-huquqiy va ichki tartib hujjatlari talablariga rioya qilinadimi?

❖ Talabalar va ularning ota-onalari qabul qilingan qarorlar mazmuni va asoslari bilan tanishtiriladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar harakati bo'yicha buyruqlar*

20. MEZON: Talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi

Izoh: talabalarning ta'lim jarayonidagi ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularni akademik, ilmiy-tadqiqot, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash tizimining shakllantirilganligi, hamda maslahat berish va mentorlik

xizmatlari yo'lga qo'yilganligi va ularning samaradorligi muntazam baholanib borilishi o'rganiladi

20.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha talabalarni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalish bo'yicha maslahat berish tizimi mavjud yoki rejalashtirilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimi (akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy) mavjudmi yoki rejalashtirilganmi?
- ❖ Tizim orqali talabalar o'z ehtiyojlari bo'yicha maslahatlardan muntazam foydalanish imkoniyatiga ega ekanliklarini qanday baholaysiz?
- ❖ Talabalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlari samaradorligini o'lchash va tahlil qilish mexanizmi yo'lga qo'yilganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Talabalarni qo'llab-quvvatlash va maslahat berish bo'yicha ichki hujjatlar*

20.2. INDIKATOR

Talabalarga fanlarni (modullarni) to'g'ri tanlash, baholash tizimini tushunish va shaxsiy rivojlanish yo'nalishini belgilashda “ustoz — shogird” va mentorlik yordami beriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ “Ustoz—shogird” yoki mentorlik tizimi orqali talabalarga fanlarni tanlash, baholash tizimini tushunish va shaxsiy rivojlanish yo'nalishini belgilash bo'yicha yordam beriladimi?
- ❖ Mentorlik jarayoni davomiyligi, shakli va samaradorligi qanday ta'minlanadi?
- ❖ Talabalar mentorlik xizmatidan foydalanish darajasi va natijalari qanday tahlil qilinadi hamda hisobot qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *“Ustoz—shogird” yoki mentorlik tizimiga oid ma'lumotlar*

20.3. INDIKATOR

Psixologik maslahat va yordam markazi tashkil etilgan**

Yordamchi savollar:

- ❖ Talabalar uchun psixologik maslahat va yordam markazi faoliyati qanday tashkil etilgan?
- ❖ Psixologik maslahat va yordam xizmatlaridan talabalar qanday va qanchalik foydalanmoqda?

❖ Psixologik yordam markazi faoliyatining samaradorligi qanday monitoring qilinadi va natijalari bo'yicha qanday choralar ko'riladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Psixologik maslahat va/yoki yordam markazi tashkil etilganligi to'g'risida ichki hujjat*

20.4. INDIKATOR

Akademik qarzdor talabalar bilan ishlash yo'lga qo'yilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Akademik qarzdor talabalar bilan ishlash tartibi va mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

❖ Qarzdor talabalar bilan ishlash jarayonida qaysi maslahat, repetitorlik yoki qo'llab-quvvatlash xizmatlari ko'rsatiladi?

❖ Akademik qarzdorlikni kamaytirish bo'yicha olib borilgan ishlar natijalari qanday monitoring qilinadi va tahlil qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik qarzdor talabalar bilan ishlash bo'yicha ichki hujjatlar va ma'lumotlar*

20.5. INDIKATOR

Talabalarning qiziqishlari va kasbiy maqsadlarini hisobga olgan holda individual ta'lim trayektoriyasi shakllantiriladi va amalga oshirish bo'yicha metodik va axborot ko'magi ko'rsatiladi**

Yordamchi savollar:

❖ Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi qanday shakllantiriladi va buning uchun qaysi metodik va axborot vositalari ishlatiladi?

❖ Individual ta'lim trayektoriyasini amalga oshirish jarayonida talabalarga qanday maslahat va qo'llab-quvvatlash ko'rsatiladi?

❖ Talabalarning individual trayektoriyasi samaradorligi qanday monitoring qilinadi va natijalar tahlil qilinadimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalarning ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish bo'yicha ma'lumotlar va ichki hujjatlar*

20.6. INDIKATOR

Maslahat berish xizmatlaridan foydalanish va ushbu xizmatlarning samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi va tahlil qilinadi hamda talabalarning ushbu xizmatlarga bo'lgan qoniqish darajasi muntazam baholanadi hamda maslahat berish tizimi takomillashtirib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Maslahat berish xizmatlaridan talabalar qanday foydalanadi va foydalanish darajasi qanday kuzatiladi?
- ❖ Maslahat berish xizmatlarining samaradorligi qanday tahlil qilinadi va natijalar qanday hujjatlarda qayd etiladi?
- ❖ Talabalarning xizmatlarga qoniqish darajasi qanday baholanadi va ushbu ma'lumotlar asosida maslahat berish tizimi qanday takomillashtiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Maslahat xizmatlaridan foydalanish statistikasi.*
- ✓ *Talabalar so'rovnomalari va tahlillari.*

V. Inson resurslari yo'nalishi

Izoh: Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq ravishda tegishli malakaga ega professor-o'qituvchi, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar yetarli miqdorda jalb etilgan, o'quv rejadagi fanlarga mos kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq reja ishlab chiqilgan hamda kadrlarning kasbiy rivojlanishi, malaka oshirishi va ularni moddiy-ma'naviy rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligini o'rganadigan faoliyat baholanadi.

21. MEZON: Ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi 

Izoh: Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun belgilangan me'yor va talablarga muvofiq ravishda pedagog kadrlar, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi hamda o'quv-yordamchi xodimlar yetarli miqdorda va tegishli malaka, mutaxassislik hamda sifat tarkibi bilan ta'minlanganligi o'rganiladi.

21.1. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilar soni ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun yetarli (ta'lim dasturi doirasidagi asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soni ta'lim dasturi doirasidagi barcha professor-o'qituvchilar soniga nisbatan kamida 70 foizni tashkil etadi)

(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda professor-o'qituvchilar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar tarkibi qanday shakllantirilgan va asosiy shtatdagi o'qituvchilarning ulushi qanday aniqlangan?

❖ Professor-o'qituvchilar sonining yetarlilik darajasi qanday asoslantiriladi (o'quv yuklamasi, fanlar taqsimoti, o'quv jarayonini qamrab olish darajasi orqali)?

❖ Agar ta'lim dasturi yangi bo'lsa, professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish bo'yicha reja qanday ishlab chiqilgan va uning amalga oshirilishi qanday nazorat qilinmoqda?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kafedralar kesimida shtatlar jadvali.*

21.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar bilan ta'minlangan (ta'lim dasturi doirasidagi ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni ta'lim dasturi doirasidagi barcha asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soniga nisbatan bakalavriatda kamida 35 foizni va magistraturada 70 foizni tashkil etadi)

(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi bo'yicha asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar tarkibida ilmiy daraja va unvonga ega pedagoglarning ulushi qanday aniqlangan va belgilangan me'yorlarga (bakalavriatda 35%, magistraturada 70%) qay darajada mos keladi?

❖ Ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilar bilan ta'minlanganlik darajasi ta'lim dasturini samarali amalga oshirilishiga qanday ta'sir qilayotganligi qanday ko'rsatib berilgan?

❖ Agar ta'lim dasturi yangi bo'lsa, ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish bo'yicha reja qanday ishlab chiqilgan va uning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi qanday nazorat qilinmoqda?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlar ro'yxati va malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar)*

✓ *Tegishli jadvallar*

21.3. INDIKATOR

Boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining soni Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarini (ro'yxat raqami 2859, 2017-yil 21-fevral) inobatga olgan holda belgilangan

(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun o'quv-yordamchi kadrlar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda o'quv-yordamchi kadrlar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)

Yordamchi savollar:

❖ Boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar soni namunaviy shtatlar (ro'yxat raqami 2859) talablari asosida qaysi usulda aniqlangan hamda ta'lim dasturini qo'llab-quvvatlovchi asosi qanday?

❖ Amaldagi xodimlar tarkibi o'quv jarayoni, moddiy-texnik ta'minot va boshqaruv faoliyatini uzluksiz ta'minlashga qanday xizmat qiladi?

❖ Agar ta'lim dasturi yangi bo'lsa, o'quv-yordamchi kadrlar tarkibini shakllantirish bo'yicha reja qanday ishlab chiqilgan va uning amalga oshirilishi qanday nazorat qilinmoqda?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Boshqaruv va ma'muriy xodimlar, o'quv yordamchi xodimlar, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar ro'yxati.*

✓ *Me'yoriy shtat koeffitsiyentlari haqidagi hujjatlar*

21.4. INDIKATOR

Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Tizim (ijtimoiy paketlar, sog'liqni saqlash, dam olish, uy-joy yoki transport bo'yicha imtiyozlar) qanday tashkil etilgan va qanday tartibda amalga oshiriladi?

❖ Tizim (ustamalar, mukofotlar, grantlar, qo'shimcha to'lovlar) qanday tartib yoki mezonlar asosida joriy qilingan va xodimlarga qanday qo'llanadi?

❖ Tizim samarali faoliyat ko'rsatishiga qanday ta'sir qilayotgani qanday tahlil qilinadi va monitoring qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishni asoslovchi hujjatlar*

22. MEZON: Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlangani 🚫

Izoh: Amaldagi ta'lim dasturlari doirasida o'quv rejada belgilangan fanlarni olib borish uchun zarur bo'lgan kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar bilan ta'minlanganligi, ularning malakasi va tajribasi ta'lim dasturi maqsad va vazifalariga mosligi o'rganiladi.

22.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturining maqsadlari, vazifalari va kutilgan o'quv natijalaridan kelib chiqqan holda o'quv rejani samarali bajarish maqsadida ta'lim dasturi doirasidagi professor-o'qituvchilarning soni va tarkibi shakllantirilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturining maqsadlari, vazifalari va kutilgan o'quv natijalari asosida professor-o'qituvchilar soni va tarkibi qanday aniqlangan va shakllantirilgan?

❖ Professor-o'qituvchilar tarkibi o'quv rejasidagi fanlarni to'liq va sifatli qamrab olinishi qanday ta'minlangan (asoslari bilan keltirilishi kerak)?

❖ Professor-o'qituvchilar yuklamasi, malaka darajasi va tajribasi o'quv rejasining samarali bajarilishiga qanday moslashtirilgan va uning monitoringi qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlar ro'yxati va malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar), ular dars beradigan fan(lar) ro'yxati, jadval*

22.2. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilar ixtisosligi o'qitiladigan fanlar (modullar) bilan mos keladi**

Yordamchi savollar:

❖ Professor-o'qituvchilarning ixtisosligi o'qitiladigan fanlar yoki modullar mazmuni bilan qanday moslashtirilgan va bu moslik qanday hujjatlar orqali asoslab berilgan?

❖ Fan/modul bo'yicha dars berayotgan pedagoglarning malaka talablari, ilmiy yo'nalishi va amaliy tajribasi o'quv jarayoniga qanday integratsiya qilingan?

❖ Professor-o'qituvchilar ixtisosligi va o'qitayotgan fanlar o'rtasidagi moslikni ta'minlash bo'yicha muntazam monitoring qanday amalga oshiriladi va aniqlangan nomuvofiqliklar qanday bartaraf etiladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlar ro'yxati va malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar), ular dars beradigan fan(lar) ro'yxati, jadval*

22.3. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarning erishgan yutuqlari bo'yicha (davlat va tarmoq mukofotlari, faxriy unvonlar, xalqaro va respublika tanlovlari g'olibligi va boshqalar) ko'rsatkichlar shakllantirilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Professor-o'qituvchilarning erishgan yutuqlari (davlat mukofotlari, faxriy unvonlar, xalqaro va respublika tanlovlar g'olibliklari) qanday aniqlangan va umumiy ko'rsatkich sifatida qanday shakllantirilgan?

❖ Pedagoglarning yutuqlari ta'lim dasturining sifatiga, ilmiy salohiyatiga va talabalar bilan ishlash samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

❖ Professor-o'qituvchilar yutuqlarini muntazam yangilab borish, tasniflash va monitoring qilish jarayoni qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yutuqlarga erishgan professor-o'qituvchilar to'g'risida ma'lumot va asoslovchi hujjatlar*

22.4. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilarning bajargan o'quv, ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlari (fundamental, amaliy va boshqa ilmiy loyihalardagi ishtiroki, darslik, o'quv qo'llanma va o'quv-metodik ishlanmalarni ishlab chiqishi, mahalliy va xalqaro nashrlar, impakt-faktorli (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari) jurnallarda maqolalar chiqarish va boshqalar) mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ Professor-o'qituvchilarning o'quv, ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot faoliyati (darsliklar, qo'llanmalar, metodik ishlanmalar, ilmiy maqolalar, loyiha ishtiroklari) qanday aniqlangan va tegishli hujjatlar asosida qanday tasniflangan?

❖ Pedagoglarning ilmiy va metodik faoliyati ta'lim dasturining sifatiga, o'quv jarayonining mazmuniga va talabalarning o'quv natijalariga ta'sir qilayotgani qanday asoslantirilgan?

❖ Professor-o'qituvchilarning ilmiy va uslubiy ishlarini muntazam monitoring qilish, yangilash va ma'lumotlar bazasiga kiritish jarayoni qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'qituvchilarning o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlari haqida tahliliy ma'lumot va jadvallar*

22.5. INDIKATOR

Ichki va tashqi malaka oshirish kurslariga doimiy yo'naltirish tizimi yo'lga qo'yilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Professor-o'qituvchilarni ichki va tashqi malaka oshirish kurslariga yo'naltirish tizimi qanday tashkil etilgan va bu jarayon qanday tartib asosida amalga oshiriladi?

❖ Malaka oshirish kurslarining mazmuni, shakli va yo'nalishlari ta'lim dasturining maqsadlari va o'quv natijalari bilan qanday bog'langan va ularning samaradorligi qay usulda baholanadi?

❖ Malaka oshirish bo'yicha o'tilgan kurslar, sertifikatlar va o'qituvchilarning kompetensiyalari monitoringi qanday yuritiladi va yangilab boriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlar ro'yxati va mahalliy hamda xorijiy malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar)*

✓ *Tegishli jadvallar*

23. MEZON: Yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi !

Izoh: Yangi ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun o'quv rejada belgilangan fanlarga mos kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq reja ishlab chiqilganligi, ushbu reja kadrlar zaxirasini shakllantirish, ularni tayyorlash, malakasini oshirish va jalb etish mexanizmlarini qamrab olinganligi o'rganiladi.

23.1. INDIKATOR

Yangi ta'lim dasturlari uchun kadrlar ehtiyoji tahlil qilingan*

Yordamchi savollar:

❖ Yangi ta'lim dasturlari uchun professor-o'qituvchilar va o'quv-yordamchi kadrlar ehtiyoji qanday tahlil qilingan va bu tahlil qaysi mezon(tartib)lar asosida amalga oshirilgan?

❖ Tahlil natijalari asosida kadrlar tarkibi va soni qanday rejalashtirilgan va ta'lim dasturining samarali amalga oshirilishini qanday ta'minlaydi?

❖ Kadrlar ehtiyoji tahlilini muntazam yangilash va nazorat qilish jarayoni qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yangi ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar ehtiyoji tahlili bo'yicha ma'lumot*

23.2. INDIKATOR

Fanlar (modullar) bo'yicha zarur mutaxassisliklar va kompetensiyalar aniqlangan

Yordamchi savollar:

❖ Har bir fan (modul) bo'yicha talab qilinadigan mutaxassisliklar va kompetensiyalar qanday aniqlangan va ularni belgilashda qanday mezonlar asos qilib olingan?

❖ Aniqlangan kompetensiyalar va mutaxassisliklar ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari bilan qanday uyg'unlashtirilgan?

❖ Fanlar bo'yicha zarur kompetensiyalarni ta'minlash uchun professor-o'qituvchilar va resurslar tarkibi qanday moslashtirilgan va monitoring qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Pedagog kadrlar ro'yxati va malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar), ular dars beradigan fan(lar) ro'yxati, jadval*

✓ *Pedagog kadrlar bilan ta'minlash 3–5 yillik istiqbol rejasi*

23.3. INDIKATOR

Yangi kadrlarni jalb qilish strategiyalari (tanlov, konkurs, grant va boshqalar orqali) belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Yangi kadrlarni jalb qilish strategiyalari (tanlov, konkurs, grant va boshqa shakllar) qanday belgilangan va ularni tanlash mezon(tartib)lari qanday aniqlangan?

❖ Ushbu strategiyalar professor-o'qituvchilar va o'quv-yordamchi xodimlar tarkibini to'ldirish va ta'lim dasturining samarali bajarilishini ta'minlashga qanday xizmat qiladi?

❖ Yangi kadrlarni jalb qilish jarayoni va natijalarini monitoring qilish, baholash va takomillashtirish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kadrlar jalb etish va tanlov o'tkazish reglamenti*

23.4. INDIKATOR

Ishga qabul qilish va kadrlar zaxirasini yaratish mexanizmi belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Ishga qabul qilish jarayoni va kadrlar zaxirasini yaratish mexanizmi qanday belgilangan va bu jarayon qanday tartibda amalga oshiriladi?

❖ Kadrlar zaxirasi ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun qanday shakllantirilgan?

❖ Ishga qabul qilish va kadrlar zaxirasini monitoring qilish, baholash va yangilab borish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha ma'lumot va ichki hujjatlar*

23.5. INDIKATOR

Xorijiy mutaxassislar va amaliyotchi ekspertlarni jalb qilish imkoniyatlari ko'zda tutilgan

Yordamchi savollar:

❖ Xorijiy mutaxassislar va amaliyotchi ekspertlarni jalb qilish imkoniyatlari qanday belgilangan va bu jarayon qanday tartibda amalga oshiriladi?

❖ Ushbu ekspertlarning ta'lim dasturidagi fanlar, laboratoriya yoki amaliy mashg'ulotlarga qo'shilishi ta'lim sifatini oshirishga qanday xizmat qiladi?

❖ Xorijiy ekspertlarni jalb qilish jarayoni va natijalarini monitoring qilish, baholash va samaradorligini tahlil qilish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining xorijiy kadrlarni jalb qilish bo'yicha ma'lumot va ichki hujjatlar*

23.6. INDIKATOR

Yangi ta'lim dasturlari uchun ilmiy darajasi yuqori kadrlarni tayyorlash va doktorlikka maqsadli yo'naltirish choralari ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ Yangi ta'lim dasturlari uchun yuqori ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash va doktorlikka yo'naltirish choralari qanday belgilangan va amalga oshiriladi?

❖ Ushbu choralarning professor-o'qituvchilar va talabalar salohiyatini oshirish hamda ta'lim dasturining sifatini ta'minlashga ta'siri qanday baholangan?

❖ Yuqori ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash va doktorlikka yo'naltirish jarayonining monitoringi, natijalarini baholash va takomillashtirish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy kadrlar rivojlanishiga oid strategik hujjatlar/rejalar va ma'lumotlar*

24. MEZON: Kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi

Izoh: Ta'lim dasturi doirasida pedagog va boshqa xodimlarning kasbiy rivojlanishi va malakasini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilganligi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish tizimi mavjudligi, bu orqali kadrlar salohiyatining uzluksiz o'sishi ta'minlanishi o'rganiladi.

24.1. INDIKATOR

Pedagog kadrlar va boshqa xodimlar uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ Pedagog kadrlar va boshqa xodimlar uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari qanday ishlab chiqilgan va ularni belgilashda qanday mezon(tartib)lar asos qilib olingan?

❖ Ushbu dasturlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va xodimlarning professional kompetensiyalarini rivojlantirishga qanday xizmat qiladi?

❖ Qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish, monitoring qilish va natijalarini baholash mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Malaka oshirish va qayta tayyorlash rejalari; tegishli jadvallar*

24.2. INDIKATOR

Ilmiy maqolalar chop etish, innovatsion g'oyalarga hissa qo'shish hamda xalqaro yoki milliy loyihalarda faol ishtirok etishni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Professor-o'qituvchilar va xodimlarning ilmiy maqolalar chop etish, innovatsion g'oyalarga hissa qo'shish hamda loyihalarda faol ishtirok etish bo'yicha rag'batlantirish tizimi qanday tashkil etilgan?

❖ Moddiy va ma'naviy rag'batlar ta'lim va ilmiy faoliyat sifatini oshirishga qanday ta'sir qilayotgani qanday baholanadi?

❖ Rag'batlantirish tizimi doimiy monitoring qilinadimi va uning samaradorligini tahlil qilish va yangilab borish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Rag'batlantirish tizimi mavjudligini tasdiqlovchi ichki hujjatlar*

24.3. INDIKATOR

Rag'batlantirish mezonlari oliy ta'lim tashkilotining ilmiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilgan holda shaffof va natijaga yo'naltirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Rag'batlantirish mezonlari qanday belgilangan va ular oliy ta'lim tashkilotining ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qanday xizmat qiladi(asoslantirib berilsin)?

❖ Rag'batlantirish mezonlari shaffof va natijaga yo'naltirilganligini ta'minlash uchun qanday tartib va mexanizmlar joriy etilgan?

❖ Rag'batlantirish mezonlari asosida olingan natijalar va ularning ilmiy faoliyat va ta'lim sifatiga ta'siri qanday monitoring qilinadi va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi mavjudligini tasdiqlovchi ichki hujjatlar*

24.4. INDIKATOR

Xodimlarni soha mutaxassisligi bo'yicha xorijiy stajirovkalar va konferensiyalarga yuborish amaliyoti mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ Xodimlarni soha mutaxassisligi bo'yicha xorijiy stajirovkalar va konferensiyalarga yuborish amaliyoti qanday tashkil etilgan va qaysi mezonlar asosida amalga oshiriladi?

❖ Ushbu stajirovkalar va konferensiyalar xodimlarning professional salohiyatini oshirish va ta'lim dasturining sifatini yaxshilashga qanday xizmat qiladi?

❖ Xorijiy stajirovkalar va konferensiyalarga yuborilgan xodimlarning natijalari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri qanday monitoring qilinadi va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xodimlarning soha mutaxassisligi bo'yicha xorijiy safarlarga yuborilganini tasdiqlovchi hujjatlar (sertifikatlar)*

24.5. INDIKATOR

Kasbiy rivojlanish natijalarini baholash va hisobga olish mexanizmi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Kasbiy rivojlanish natijalarini baholash va hisobga olish mexanizmi qanday tashkil etilgan va qaysi mezonlar asosida ishlaydi?

❖ Baholash natijalari professor-o'qituvchilar va xodimlarning malaka oshirish jarayoniga va ta'lim sifatiga qanday ta'sir qiladi?

❖ Kasbiy rivojlanish natijalarini muntazam monitoring qilish, yangilash va hisobga olish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Baholash va hisobga olish bo'yicha ma'lumotlar va asoslovchi ichki hujjatlar*

VI. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Izoh: Ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza, o'quv binolari, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, axborot-resurs markazlari va zamonaviy o'quv-ilmiy jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasi, shu bilan birga, xomashyo va o'quv materiallarining mavjudligi, ularning muntazam yangilanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga erkin kirish imkoniyati hamda ta'lim muhitining xavfsizligi va inklyuzivligini tahlil qilinadigan faoliyat baholanadi.

25. MEZON: Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani 

***Izoh:** Zarur bo'lgan asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnik vositalar, xomashyo va materiallar yetarli darajada mavjudligi, shuningdek, ularning muntazam yangilanib turishi, ish holatida ekanligi hamda ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasi o'rganilgan.*

25.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar texnikalar, xomashyo materiallari mavjud hamda ular ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiq

Yordamchi savollar:

- ❖ Zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar va xomashyo materiallari qanday aniqlangan va ta'minlangan?
- ❖ Ushbu resurslar ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga qanday moslashtirilgan va samaradorligi ta'minlangan?
- ❖ Asbob-uskunalar va materiallar bilan ta'minlanishning monitoringi, yangilanishi va xavfsiz foydalanish tartibi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalar ro'yxati; tegishli jadvallar.

25.2. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkiloti talabalar kontingentidan kelib chiqqan holda asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalar bilan ta'minlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Oliy ta'lim tashkiloti talabalar kontingenti asosida amaliy mashg'ulotlar uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalar soni va turi qanday aniqlangan?
- ❖ Ushbu jihozlar va texnikalar talabalarning o'quv jarayonida samarali foydalanishi va ta'lim dasturi maqsadlariga erishishiga qanday xizmat qiladi?
- ❖ Talabalar soni o'zgarishi yoki yangi fanlar joriy qilinishi bilan jihozlar va texnikalarni yangilash va qo'shimcha ta'minlash mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar ro'yxati; tegishli jadvallar.

25.3. INDIKATOR

Asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalarning texnik pasportlari mavjud, texnik ko'rikdan o'tkazilgan, texnik xizmat ko'rsatilganlik (ta'mirlash, profilaktika) ishlari hujjatlashtirib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalarning texnik pasportlari qanday yuritiladi va ularning mavjudligi qanday tasdiqlanadi?

❖ Texnik ko'rik, ta'mirlash va profilaktika ishlari qanday tartibda amalga oshiriladi va bu jarayon qanday hujjatlashtiriladi?

❖ Texnik xizmat ko'rsatish natijalari va asbob-uskunalar holati ta'lim dasturi maqsadlari va o'quv jarayoni talablariga mos kelishini qanday monitoring qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari to'g'risida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

25.4. INDIKATOR

Asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalardan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar, yo'riqli texnologik xaritalar, ko'rsatmalar va yo'riqnomalar (xavfsizlik yo'riqnomasi, instruksiylar) mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ Metodik qo'llanmalar, yo'riqli texnologik xaritalar va ko'rsatmalar qanday ishlab chiqilgan va mavjudligi tasdiqlangan?

❖ Xavfsizlik yo'riqnomalari va instruksiylar amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari jarayonida qanday qo'llaniladi va xodimlar hamda talabalar tomonidan bajarilishi ta'minlanadi?

❖ Metodik qo'llanmalar va yo'riqnomalarning yangilanishi, amaldagi resurslarga moslashuvi va foydalanish monitoringi qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Metodik qo'llanmalar, yo'riqli texnologik xaritalar, ko'rsatmalar va yo'riqnomalar (xavfsizlik yo'riqnomasi, instruksiylar) bo'yicha ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar; tegishli jadvallar*

25.5. INDIKATOR

Asbob-uskunalar bilan ishlash bo'yicha pedagoglar va talabalar uchun soha mutaxassisarlari yoki ish beruvchilar bilan hamkorlikda treninglar (master-klasslar) o'tkazish yo'lga qo'yilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Trening va master-klasslarni soha mutaxassislari yoki ish beruvchilar bilan hamkorlikda o'tkazish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

❖ Treninglar va master-klasslar pedagoglar va talabalar kompetensiyalarini oshirish hamda ta'lim dasturi maqsadlariga erishishga qanday xizmat qiladi?

❖ O'tkazilgan treninglar va master-klasslar natijalari, ishtirokchilar faoliyati va ularning o'quv jarayoniga ta'siri qanday monitoring qilinadi va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Asbob-uskunalaridan foydalanish bo'yicha tashkil etilgan seminar/trening/majlislar haqida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar.*

25.6. INDIKATOR

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar o'tkaziladigan o'quv xonalarini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha yillik reja ishlab chiqilgan**

Yordamchi savollar:

❖ O'quv xonalari modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha yillik reja qanday ishlab chiqilgan?

❖ Ushbu reja o'quv xonalari jihozlanishi, texnologiyalarni integratsiyalash va ta'lim dasturi maqsadlariga erishish bilan qanday uyg'unlashtirilgan?

❖ Modernizatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni, natijalari va samaradorligini monitoring qilish mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar o'tkaziladigan o'quv xonalarini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha yillik reja va uning ijrosi haqida ma'lumotlar*

26. MEZON: Fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani !

Izoh: Ta'lim dasturi doirasida har bir fan bo'yicha talabalarga zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun yetarli miqdorda va zamonaviy mazmundagi darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar, ilmiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari taqdim etilganligi, resurslarning fan dasturi mazmuniga, davlat ta'lim standartiga va ilmiy-texnologik rivojlanish tendensiyalariga mos bo'lishi, muntazam yangilanib borilishi va talabalar hamda o'qituvchilar uchun erkin foydalanish imkoniyatini o'rganiladi.

26.1. INDIKATOR

Har bir fanning (modulning) o'quv dasturida belgilangan o'quv adabiyotlar va metodik qo'llanmalar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Har bir fan (modul) bo'yicha o'quv dasturida belgilangan o'quv adabiyotlar va metodik qo'llanmalar qanday aniqlangan va mavjudligi tasdiqlangan?

❖ O'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalar ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari bilan qanday uyg'unlashtirilgan?

❖ O'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalarni yangilash, qo'shimcha qilish va foydalanish monitoringi qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Fanlar bo'yicha adabiyotlar ro'yxati/ ta'minlanganlik jadvali*

26.2. INDIKATOR

Adabiyotlar fanlarning (modullarning) mazmuni va o'quv maqsadlariga mos ravishda tanlangan

Yordamchi savollar:

❖ Adabiyotlar fanlarning (modullarning) mazmuni va o'quv maqsadlariga mos ravishda qanday tanlangan va bu tanlov qaysi mezonlar asosida amalga oshirilgan?

❖ Tanlangan adabiyotlar va resurslar o'quv jarayonida samarali qo'llanilishini ta'minlash va o'quv natijalariga erishishga qanday xizmat qiladi?

❖ Adabiyotlar va qo'llanmalarni muntazam yangilash, ta'lim dasturi maqsadlariga mosligini tekshirish va monitoring qilish mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Adabiyotlar fanlarning (modullarning) mazmuni va o'quv maqsadlariga mos ravishda tanlangani to'g'risida ma'lumot*

✓ *Fan sillabuslari, tegishli jadvallar*

26.3. INDIKATOR

Fanlar (modullar) bo'yicha ishlab chiqilgan o'qitish materiallari to'plamlari va raqamli ta'lim resurslari elektron kutubxonaga joylashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Fanlar (modullar) bo'yicha ishlab chiqilgan o'qitish materiallari va raqamli ta'lim resurslari qanday tartibda to'plangan va elektron kutubxonaga joylashtirilgan?

❖ Joylashtirilgan resurslar talabalarning o'quv jarayonida samarali foydalanishini va ta'lim dasturi maqsadlariga erishishini qanday ta'minlaydi?

❖ Elektron kutubxonadagi materiallar va raqamli resurslarni yangilash, qo'shimcha qilish va foydalanish monitoringi qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Onlayn ta'lim/axborot-resurs platformalari*

26.4. INDIKATOR

Pedagog kadrlar va talabalar uchun elektron resurslarga uzluksiz kirish imkoniyati mavjud**

Yordamchi savollar:

- ❖ Pedagog kadrlar va talabalar uchun elektron resurslarga uzluksiz kirish imkoniyati qanday tashkil etilgan va texnik jihatdan qanday ta'minlangan?
- ❖ Uzluksiz kirish ta'lim jarayonida elektron resurslardan samarali foydalanish va o'quv natijalariga erishishga qanday xizmat qiladi?
- ❖ Elektron resurslarga kirishning monitoringi, foydalanish samaradorligini baholash va texnik xizmat ko'rsatish mexanizmlari qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Onlayn ta'lim/axborot-resurs platformalari*

26.5. INDIKATOR

O'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalar doimiy yangilanib, zamonaviy fanlar (modullar) va ilmiy-texnologik rivojlanish tendensiyalariga moslashtirib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ O'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalar qanday tartibda doimiy yangilanadi va zamonaviy fanlar hamda ilmiy-texnologik rivojlanish tendensiyalariga moslashtiriladi?
- ❖ Yangilangan adabiyotlar va qo'llanmalar ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari bilan qanday uyg'unlashtiriladi?
- ❖ Adabiyotlar va metodik qo'llanmalarni yangilash va moslashtirish jarayoni qanday monitoring qilinadi va natijalar baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *O'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalar doimiy yangilanib, zamonaviy fanlar (modullar) va ilmiy-texnologik rivojlanish tendensiyalariga moslashtirilganligi haqida ma'lumot*
- ✓ *Tegishli jadvallar*

26.6. INDIKATOR

Fan (modul) mazmuniga mos zamonaviy xorijiy adabiyotlardan foydalaniladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Fan (modul) mazmuniga mos zamonaviy xorijiy adabiyotlar qanday tanlanadi va ulardan foydalanish tartibi qaysi usulda tashkil etilgan?

❖ Xorijiy adabiyotlar talabalarining o'quv jarayonida bilim va kompetensiyalarini oshirishga qanday xizmat qiladi?

❖ Xorijiy adabiyotlardan foydalanish samaradorligi va ularning o'quv jarayoniga integratsiyasi qanday monitoring qilinadi va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Fan dasturlari, ARM/onlayn axborot-resurs platformasidagi manbalar

✓ Tegishli jadvallar

27. MEZON: O'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani !

Izoh: Ta'lim dasturlari talablariga muvofiq ravishda o'quv xonalari, laboratoriyalar va ustaxonalar (poligonlar) talabalar sonini inobatga olgan holda zarur jihozlar, asbob-uskunalar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanganligi, jihozlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qilishi, doimiy ish holatida bo'lishi va xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya etilgan sharoitda faoliyat yuritilishi nazarda tutiladi.

27.1. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkiloti talabalar kontingentidan kelib chiqqan holda o'quv xonalari bilan ta'minlangan*

Yordamchi savollar:

❖ Oliy ta'lim tashkiloti talabalar kontingenti asosida o'quv xonalari soni va maydoni qanday aniqlangan va ta'minlangan?

❖ O'quv xonalari ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan o'quv natijalarini amalga oshirishga qanday xizmat qiladi?

❖ Talabalar sonidagi o'zgarishlar yoki yangi fanlar joriy qilinishi bilan o'quv xonalari ta'minotini yangilash va optimallashtirish mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ O'quv xonalari va laboratoriyalar ro'yxati, minimal talablar bajarilganligi haqida asosnoma (qiyoslama jadval)

27.2. INDIKATOR

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar o'tkaziladigan o'quv xonalari va moddiy-texnik baza mehnatni muhofaza qilish qoidalarini, sanitariya qoidalarini, normalari va gigiyena normalari, shaharsozlik normalari va qoidalarini hamda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradi

Yordamchi savollar:

❖ Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkaziladigan o'quv xonalari va moddiy-texnik baza mehnatni muhofaza qilish, sanitariya, gigiyena, shaharsozlik hamda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga mos kelishi qanday ta'minlangan?

❖ Xodimlar va talabalar ushbu xavfsizlik va gigiyena qoidalariga qanday o'rgatilgan va amalda bajarilishi qanday nazorat qilinadi?

❖ O'quv xonalari va moddiy-texnik bazaning xavfsizlik, sanitariya va texnika normativlariga mosligini monitoring qilish, ta'mirlash va yangilash jarayoni qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar o'tkaziladigan o'quv xonalarining pasporti va ularning jihozlanishi hamda tegishli xavfsizlik qoidalariga rioya etilganligi bo'yicha ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

27.3. INDIKATOR

Laboratoriyalar va ustaxonalar (poligonlar) ta'lim dasturiga mos asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalar bilan ta'minlangan, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish vositalari mavjud, evakuatsiya yo'llari (sxemalari) belgilangan hamda xavfsizlik jurnallarini yuritish yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ Laboratoriyalar va ustaxonalar (poligonlar) ta'lim dasturiga mos asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalar bilan qanday ta'minlangan va bu ta'minot qay usulda nazorat qilinadi?

❖ Birinchi tibbiy yordam vositalari mavjudligi, evakuatsiya yo'llari (sxemalari) va xavfsizlik jurnallari qanday tartibda ta'minlangan va ular amaliyotda qanday ishlatiladi?

❖ Xavfsizlik jurnallari va me'yorlarga rioya qilinishini monitoring qilish, yangilash va talabalarga va xodimlarga tegishli ko'rsatmalar berish mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Laboratoriyalar va ustaxonalar (poligonlar) pasporti va ularning jihozlanishi hamda tegishli xavfsizlik qoidalariga rioya etilganligi bo'yicha ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

27.4. INDIKATOR

Fanlar (modullar) ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv xonalarida axborot-kommunikatsiya vositalari (proyektor, kompyuter va boshqalar) o'rnatilgan hamda IT infratuzilma shakllantirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Fanlar (modullar) ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv xonalarida axborot-kommunikatsiya vositalari (proyektor, kompyuter va boshqalar) qanday o'rnatilgan va ta'minlangan?

❖ O'rnatilgan axborot-kommunikatsiya vositalari va IT infratuzilma ta'lim jarayonida fanlar mazmuni va o'quv natijalariga erishishga qanday xizmat qiladi?

❖ Axborot-kommunikatsiya vositalari va IT infratuzilmani muntazam monitoring qilish, texnik xizmat ko'rsatish va yangilash mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv xonalarining Axborot-kommunikatsiya vositalari va IT infratuzilmasi bilan jihozlanishi haqida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

27.5. INDIKATOR

O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarda (poligonlarda) talabalar uchun o'rindiqlar va ish joylari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarda (poligonlarda) talabalar uchun o'rindiqlar va ish joylari qanday ta'minlangan va soni talabalar kontingentiga mos keladimi?

❖ O'rindiqlar va ish joylari talabalarning amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari samaradorligini qanday ta'minlaydi?

❖ Talabalar ish joylari va o'rindiqlarning holatini monitoring qilish, yangilash va texnik xizmat ko'rsatish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarda (poligonlarda) talabalar uchun o'rindiqlar va ish joylari bilan ta'minlanganligi bo'yicha ma'lumot va asoslovchi hujjatlar*

28. MEZON: Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi) foydalanish imkoniyati yaratilgani

Izoh: Ta'lim muassasasida inklyuziv ta'limni ta'minlash uchun binolar va infratuzilmalar nogironligi bor talabalar ehtiyojlariga moslashtirilganligi, maxsus o'quv materiallari va jihozlarning mavjudligi hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish uchun qulay muhit yaratilganligi nazarda tutiladi.

28.1. INDIKATOR

Oliy ta'lim tashkiloti binolar va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, liftlar, eshiklar va sanitariya xonalari nogironligi bo'lgan shaxslar (talabalar) uchun moslashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Oliy ta'lim tashkiloti binolari va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, liftlar, eshiklar va sanitariya xonalari nogironligi bo'lgan talabalar uchun qanday moslashtirilgan?

❖ Moslashtirilgan inshootlar nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'lim jarayonida qulay va xavfsiz foydalanishni qanday ta'minlaydi?

❖ Moslashtirish ishlari va ularning samaradorligini monitoring qilish, yangilash va texnik xizmat ko'rsatish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilganligi bo'yicha ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

28.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi bo'yicha maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar qanday ta'minlangan va mavjudligi tasdiqlangan?

❖ Ushbu maxsus resurslar nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'lim jarayonida samarali foydalanishni va o'quv natijalariga erishishni qanday ta'minlaydi?

❖ Maxsus o'quv materiallari va jihozlarning holatini monitoring qilish, yangilash va texnik xizmat ko'rsatish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Maxsus o'quv materiallari, maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

28.3. INDIKATOR

Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron resurslar, dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video resurslar, Brayl yozuvi alifbosi, subtitrlar va boshqalar) yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron resurslar va dasturiy ta'minot (audio-video resurslar, Brayl yozuvi, subtitrlar va boshqalar) qanday yaratilgan va ta'minlangan?

❖ Ushbu resurslar nogironligi bo'lgan talabalar uchun o'quv jarayonida qanday qo'llaniladi va ta'lim dasturi maqsadlariga erishishga qay usulda xizmat qiladi?

❖ AKT va elektron resurslardan foydalanish samaradorligini monitoring qilish, yangilash va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *AKT, elektron resurslar, dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati yaratilganligi to'g'risida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar*

28.4. INDIKATOR

Ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish tizimi mavjud**

Yordamchi savollar:

- ❖ Pedagogik va psixologik yordam tizimi qanday tashkil etilgan?
- ❖ Ushbu tizim nogironligi bo'lgan talabalar uchun o'quv jarayonida individual yondashuv va qo'llab-quvvatlashni qanday ta'minlaydi?
- ❖ Pedagogik va psixologik yordam tizimining samaradorligi, monitoringi va natijalarini baholash mexanizmlari qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik va psixologik yordam ko'rsatuvchilar to'g'risida ma'lumot*

28.5. INDIKATOR

Inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha tayyorlangan va zarur ko'nikmalarga ega pedagog(lar) va (yoki) psixolog mavjud**

Savollar:

- ❖ Pedagog va (yoki) psixologlarning zarur ko'nikmalarga ega ekanligi qanday tasdiqlangan?
- ❖ Ushbu mutaxassislar inklyuziv ta'lim jarayonida talabalar uchun individual yondashuv va qo'llab-quvvatlashni qanday ta'minlaydi?
- ❖ Pedagoglar va psixologlarning kompetensiyalarini yangilash, monitoring qilish va baholash mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik va psixologik yordam ko'rsatuvchilar to'g'risida ma'lumot*

28.6. INDIKATOR

Inklyuziv ta'lim sharoitlarining amalda qo'llanishi va samaradorligi bo'yicha monitoring olib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Inklyuziv ta'lim sharoitlarining amalda qo'llanishi qay tarzda monitoring qilinadi va uning samaradorligini baholash mezonlari qanday belgilangan?

❖ Monitoring natijalari inklyuziv ta'lim jarayonini takomillashtirish va talabalar uchun qo'llab-quvvatlash tizimini yaxshilashga qanday xizmat qiladi?

❖ Inklyuziv ta'lim sharoitlarini doimiy yangilash va samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarni amalga oshirish mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki nazorat va monitoring hisobotlari (zarur hollarda)*

29. MEZON: Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi !

Izoh: Axborot-resurs markazi (kutubxona) ta'lim dasturlari talablariga mos o'quv va ilmiy adabiyotlar, elektron manbalar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanganligi, o'quv zali va elektron kutubxona faoliyati tashkil etilganligi nazarda tutiladi.

29.1. INDIKATOR

ARMda ta'lim dasturiga mos darslik, o'quv qo'llanma va adabiyotlar, badiiy adabiyotlar mavjud*

Yordamchi savollar:

❖ ARM ta'lim dasturiga mos darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy va badiiy adabiyotlar qanday ta'minlangan va tasdiqlangan?

❖ Ushbu resurslar talabalarning o'quv jarayonida bilim va kompetensiyalarini oshirishga qanday xizmat qiladi?

❖ Darsliklar va boshqa adabiyotlarni muntazam yangilash, zamonaviy ilmiy-texnologik tendensiyalar bilan moslashtirish va foydalanish monitoringi qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kutubxonada mavjud adabiyotlar ro'yxati; tegishli jadvallar*

29.2. INDIKATOR

ARM zamonaviy AKT va elektron qurilmalar bilan jihozlangan, internet tarmog'iga ulanish imkoniyati yaratilgan hamda ulardan foydalanish bo'yicha talabalarga tushuntirishlar berilgan

Yordamchi savollar:

❖ ARM qanday zamonaviy AKT va elektron qurilmalar bilan jihozlangan va internet tarmog'iga ulanish imkoniyati qanchalik ta'minlangan?

❖ Talabalarga ARMdagi elektron resurslar va AKT vositalaridan foydalanish bo'yicha qanday tushuntirishlar berilgan va ularning o'quv jarayonida samarali foydalanishi qanday ta'minlanadi?

❖ ARMdagi elektron qurilmalar va AKT vositalaridan foydalanish monitoringi, texnik xizmat ko'rsatish va yangilash mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *AKT va elektron qurilmalar ro'yxati, ulardan foydalanish bo'yicha ichki hujjat*

29.3. INDIKATOR

Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondida ta'lim dasturi bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanma va adabiyotlar, o'qitish materiallari to'plami, raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentlar raqamli formatda joylashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'qitish materiallari, raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentlar qanday raqamli formatda joylashtirilgan?

❖ Raqamli resurslar talabalarning o'quv jarayonida samarali foydalanishi va ta'lim dasturi maqsadlariga erishishga qanday xizmat qiladi?

❖ Elektron kutubxona fondini yangilash, raqamli resurslarni qo'shimcha qilish va ulardan foydalanishni monitoring qilish mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Elektron ta'lim resurslari*

29.4. INDIKATOR

Talabalar uchun qulay sharoitlarga ega bo'lgan ARM o'quv zali mavjud

Yordamchi savollar:

❖ ARM o'quv zali qanday tashkil etilgan va tasdiqlangan?

❖ O'quv zalidagi sharoitlar talabalarning o'quv jarayonida samarali ishlashini va ta'lim dasturi maqsadlariga erishishini qanday ta'minlaydi?

❖ O'quv zalidagi jihozlar, joylashuv va qulayliklarni monitoring qilish, yangilash va xizmat ko'rsatish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ARM o'quv zali to'g'risida ma'lumotnoma va asoslovchi hujjatlar*

29.5. INDIKATOR

Kutubxona fondi muntazam yangilanib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Kutubxona fondi qanday tartibda muntazam yangilanib boriladi va yangi nashrlar qanday tanlanadi?

❖ Yangilangan kutubxona resurslari talabalarning o'quv jarayonida samarali foydalanishini va ta'lim dasturi maqsadlariga erishishni qanday ta'minlaydi?

❖ Kutubxona fondini yangilash jarayoni, monitoring va resurslarni optimallashtirish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kutubxona fondiga yillar kesimida yangi qabul qilingan adabiyotlar ro'yxati*

30. MEZON: Raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari)

Izoh: Ta'lim jarayonini raqamlashtirish maqsadida zamonaviy raqamli ta'lim muhiti yaratilganligi, unda LMS tizimi, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari bilan to'liq ta'minlanganligi nazarda tutiladi.

30.1. INDIKATOR

Ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi (HEMIS) va (yoki) LMS orqali dars jarayonlari va materiallar elektron formatda taqdim etiladi hamda onlayn kurslar va videodarslar o'quv jarayonlariga integratsiya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ HEMIS va (yoki) LMS orqali dars jarayonlari va materiallar qanday elektron formatda taqdim etiladi?

❖ Onlayn kurslar va videodarslar o'quv jarayoniga qanday integratsiya qilingan va talabalarning o'quv natijalarini oshirishga qanday xizmat qiladi?

❖ Elektron dars materiallari va onlayn resurslarning yangilanishi, monitoringi va samaradorligini baholash mexanizmi qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *HEMIS va/yoki LMS tizimi to'g'risidagi ma'lumot hamda foydalanish bo'yicha ichki hujjat*

✓ *Onlayn kurslar ro'yxati va ta'lim dasturiga integratsiya bo'yicha ma'lumot*

30.2. INDIKATOR

Masofaviy ta'lim platformalari orqali o'quv jarayonlarida qatnashish imkoniyati yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ Qatnashish imkoniyati qanday tashkil etilgan va talabalarga taqdim etiladi?

❖ Masofaviy ta'lim platformalari talabalarning o'quv jarayonida bilim va kompetensiyalarini oshirishga qanday xizmat qiladi?

❖ Masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish samaradorligi, monitoring va texnik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Masofaviy ta'lim platformasi haqida ma'lumot*

30.3. INDIKATOR

Talabalarni akademik faoliyatini kuzatish, tahlil qilish va elektron baholash hamda "feedback" berish tizimi joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ Tizim qanday joriy etilgan va uning asosiy funksiyalari qanday?

❖ Ushbu tizim orqali talabalarga "feedback" berish jarayoni qanday tashkil etilgan va o'quv jarayonida bilim va kompetensiyalarni oshirishga qanday xizmat qiladi?

❖ Tizimning samaradorligi, monitoringi va doimiy yangilanish mexanizmlari qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

Tizimda talabalarni akademik faoliyatini kuzatish, tahlil qilish va elektron baholash hamda "feedback" berish imkoniyati haqida ma'lumot

30.4. INDIKATOR

Raqamli ta'lim muhiti axborot xavfsizligi talablariga mos ravishda himoyalangan

Yordamchi savollar:

❖ Raqamli ta'lim muhiti axborot xavfsizligi talablariga qanday moslashtirilgan va himoyalangan?

❖ Axborot xavfsizligini ta'minlash choralari talabalarning ma'lumotlari va o'quv jarayonining yaxlitligini qanday kafolatlaydi?

❖ Raqamli ta'lim muhitidagi xavfsizlikni monitoring qilish, yangilash va xavfsizlik choralari takomillashtirish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Axborot xavfsizligi bo'yicha tegishli hujjatlar*

30.5. INDIKATOR

Vebinarlar va onlayn seminarlar muntazam tashkil etiladi**

Yordamchi savollar:

❖ Vebinarlar va onlayn seminarlar qanday tartibda va qaysi mavzularda muntazam tashkil etiladi?

❖ Ushbu vebinarlar va onlayn seminarlar talabalarining o'quv jarayonida bilim va kompetensiyalarini oshirishga qanday xizmat qiladi?

❖ Vebinarlar va onlayn seminarlarning samaradorligini monitoring qilish, baholash va takomillashtirish mexanizmlari qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Vebinar va onlayn seminarlar haqida ma'lumot va asoslovchi hujjatlar*

30.6. INDIKATOR

Ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi (HEMIS) va (yoki) LMS (learning management system) orqali talabalar, pedagog kadrlar va ma'muriyat o'rtasida muloqot kanali yo'lga qo'yilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Muloqot kanali qanday yo'lga qo'yilgan va uning funksiyalari qanday?

❖ Ushbu muloqot kanali o'quv jarayonini samarali boshqarish, ma'lumot almashish va tezkor "feedback" berish jarayoniga qanday xizmat qiladi?

❖ Muloqot kanalining samaradorligi, monitoringi va tizimdagi xatoliklarni aniqlash va tuzatish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *HEMIS va/yoki LMS ta'lim platformasida qo'llab quvvatlash oynasidan foydalanish haqida tahliliy ma'lumot*

30.7. INDIKATOR

Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish bo'yicha texnik qo'llab-quvvatlash xizmati mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ Tizim qanday tashkil etilgan va qaysi xizmatlarni taqdim etadi?

❖ Texnik qo'llab-quvvatlash xizmati talabalarining va pedagog kadrlarning elektron resurslardan samarali foydalanishini qanday ta'minlaydi?

❖ Qo'llab-quvvatlash xizmatining samaradorligi, murojaatlarni ko'rib chiqish va yechimlarni taqdim etish mexanizmlari qanday monitoring qilinadi va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Texnik qo'llab-quvvatlash xizmati haqida ma'lumotlar*

31. MEZON: Ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi

Izoh: *Ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, sport zali, stadion, musiqa xonasi, teatr studiyasi kabi maxsus xonalar va inshootlar mavjudligi, ularning ta'lim*

jarayonida samarali tashkil etilganligi va talabalarning qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi nazarda tutiladi.

31.1. INDIKATOR

Sport zali, stadion va sport maydonchalaridan foydalanish imkoniyati ta'minlangan hamda jismoniy tarbiya va sport tadbirlari uchun zarur inventarlar mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ Sport zali, stadion va sport maydonchalaridan foydalanish imkoniyati qanday ta'minlangan va talabalar uchun qulaylik darajasi qanday?
- ❖ Zarur inventarlar qanday ta'minlangan va ularning holati talabalarning samarali mashg'ulot o'tashiga qanday xizmat qiladi?
- ❖ Sport inshootlari va inventarlarning monitoringi, texnik xizmat ko'rsatish va yangilanish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Sport inshootlari, jihozlari va inventarlari ro'yxati va ularning tavsifi*

31.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturi talablariga muvofiq, musiqa, san'at va madaniyat darslari uchun maxsus xonalar jihozlangan hamda ijodiy faoliyat uchun asbob-uskunalar mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ Maxsus xonalar qanday jihozlangan va mavjudligi tasdiqlangan?
- ❖ Ijodiy faoliyat uchun zarur asbob-uskunalar qanday ta'minlangan va ular o'quv jarayonida samarali qo'llanilishini qanday kafolatlaydi?
- ❖ Maxsus xonalar va ijodiy asbob-uskunalarni monitoring qilish, texnik xizmat ko'rsatish va yangilash mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Musiqa/san'at xonalari ro'yxati va ularning tavsifi*
- ✓ *Jihozlar va inventarlar ro'yxati*

31.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus laboratoriyalar, studiyalar yoki boshqa maxsus xonalar mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ Maxsus xonalar qanday tashkil etilgan va mavjudligi qanday tasdiqlangan?
- ❖ Ushbu maxsus xonalar ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga erishishda qanday xizmat qiladi?

❖ Maxsus xonalarni monitoring qilish, texnik xizmat ko'rsatish va yangilash mexanizmlari qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Maxsus laboratoriyalar, studiyalar yoki boshqa maxsus xonalar ro'yxati va ularning tavsifi*

31.4. INDIKATOR

Binolar (inshootlar) ta'lim jarayoni davomida doimiy faoliyat ko'rsatadi

Yordamchi savollar:

❖ Binolar (inshootlar) ta'lim jarayoni davomida doimiy faoliyat ko'rsatishini qanday ta'minlash mexanizmlari mavjud?

❖ Doimiy faoliyat ko'rsatish binolarning o'quv jarayoniga, talabalarning samarali o'qishiga va ta'lim dasturi maqsadlariga erishishga qanday xizmat qiladi?

❖ Binolar faoliyatini monitoring qilish, texnik xizmat ko'rsatish va zarur hollarda yangilash mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim jarayonida bino (inshoot)lardan samarali foydalanish bo'yicha ma'lumot*

31.5. INDIKATOR

Binolar (inshootlar) talabalar soniga mos hajm va sig'imga ega

Yordamchi savollar:

❖ Binolar (inshootlar) talabalarning soniga mos hajm va sig'imga qanday ega ekanligi qanday aniqlangan va tasdiqlangan?

❖ Talabalar soniga mos keladigan hajm va sig'im binolarning o'quv jarayonida samarali foydalanilishini va ta'lim dasturi maqsadlariga erishishni qanday ta'minlaydi?

❖ Binolar hajmi va sig'imini monitoring qilish, talabalar sonidagi o'zgarishlarga moslashtirish va zarur hollarda kengaytirish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Talabalar soniga nisbatan inshootlar sig'imi bo'yicha ma'lumot*

ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA

Ichki baholash natijalaridan kelib chiqib, ta'lim dasturining davlat ta'lim standartlari, maxsus davlat akkreditatsiyasi mezonlari, milliy malaka ramkasi hamda kasbiy standartlarga muvofiqlik darajasi aniq va qisqa ifodalanadi.

Misol uchun: Ta'lim dasturi amaldagi davlat ta'lim standartlari va akkreditatsiya mezonlariga asosan umumiy holda muvofiq deb baholandi.

Ta'lim dasturining aniqlangan kuchli jihatlari (Strengths), jumladan asosiy afzalliklari, ta'lim natijalarining aniqligi va o'lchanishi, mehnat bozoriga yo'naltirilganligi, ish beruvchilar bilan hamkorligi hamda pedagoglar salohiyati qisqa va aniq shaklda bayon etiladi.

Aniqlangan kamchiliklar va xavflar (Weaknesses/Risks), ya'ni standartlar yoki indikatorlarga to'liq javob bermaydigan jihatlari, resurslar, kadrlar yoki infratuzilma bilan bog'liq muammolar, ta'lim natijalari hamda amaliyot o'rtasidagi nomutanosibliklar, shuningdek bitiruvchilar natijalarida kuzatilgan xavflar ochiq va aniq sabablar bilan ko'rsatiladi.

Ta'lim natijalariga erishish darajasi bo'yicha o'qitish natijalarining bajarilishi, baholash natijalari tahlili hamda bitiruvchilarning ishga joylashishi yoki keyingi ta'limga o'tishi haqidagi ma'lumotlar qisqacha raqamlar bilan ko'rsatiladi.

Manfaatdor tomonlar (ta'lim oluvchilar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar va bitiruvchilar) fikrlarining umumlashtirilgan natijalari bo'yicha xulosa raqamlar asosida keltiriladi.

Ta'lim dasturini takomillashtirish rejasiga (Action Plan) xizmat qiladigan ustuvor yo'nalishlar, muhim chora-tadbirlar hamda qisqa va o'rta muddatli o'zgarishlar aniq belgilanadi.

Ichki baholash natijalari bo'yicha ta'lim tashkilotining rasmiy munosabatini ifodalovchi umumiy xulosa (Conclusion statement) shakllantiriladi. Unda ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasiga tavsiya etish, kamchiliklar bartaraf etilishi sharti bilan tavsiya etish yoki takomillashtirish zarurati sababli qayta ko'rib chiqish yuzasidan ichki baholash xulosasi bayon etiladi.

Takomillashtirish ishlari uchun mas'ul bo'linmalar, keyingi ichki monitoring muddatlari hamda qayta baholash rejasi qisqacha qayd etiladi.

ILOVA: TA'LIM DASTURI BO'YICHA ICHKI BAHOLASH HISOBOTI SHAKLI

Ichki baholash hisoboti quyidagi ketma-ketlikda shakllantiriladi:

1. Titul varaqasi (*platforma orqali avtomatik shakllanadi*).
2. Mundarija (*platforma orqali avtomatik shakllanadi*).
3. Ichki baholash bo'yicha komissiya a'zolari tarkibi (*keltirilgan **namuna** asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*).
4. Ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy ma'lumot (*keltirilgan **namuna** asosida platforma orqali avtomatik shakllanadi*).
5. Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladigan ta'lim dasturi to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan **namuna** asosida platforma orqali avtomatik shakllanadi*).
6. Ta'lim tashkiloti tuzilmasi (*keltirilgan **namuna** asosida ta'lim tashkiloti tomonidan tasdiqlangan holda platformaga yuklanadi*).
7. Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari bo'yicha baholash natijalarini shakllantirishda foydalaniladigan tahliliy ma'lumotlar (*keltirilgan **1-12-jadvallar** to'ldirilgan holda platformaga yuklanadi*).

ta'lim tashkilotining nomi

"TASDIQLAYMAN"

_____ F.I.O.

"__" _____ 2026-y.

"

_____ "

ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha

ICHKI BAHOLASH HISOBOTI

Hudud: _____.

Ichki baholash bo'yicha komissiya a'zolari tarkibi

t/r	F.I.O.	Lavozimi

Ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy ma'lumot

Nomi:	
Ta'lim tashkilotining turi (davlat/nodavlat/ xorijiy)	
Tashkil etilgan yili:	
Tashkil etish asosi:	<i>(normativ-huquqiy hujjat, litsenziya yoki boshqalar)</i>
Rasmiy elektron pochta:	
Rasmiy veb-sahifasi:	
Rasmiy telefon raqami:	
Manzili (asosiy):	
Manzili (qo'shimcha):	
Davlat akkreditatsiyasi uchun mas'ul shaxs to'g'risida ma'lumot	
F.I.O.:	
Lavozimi:	
Rasmiy elektron pochta:	
Rasmiy ish telefon raqami:	

**Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladigan ta'lim dasturi to'g'risida
ma'lumot**

1.	Ta'lim dasturi nomi:	
2.	Ta'lim dasturi kodi:	
3.	Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi:	
4.	Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi:	
5.	Hamkorlikda amalga oshirilishi (qo'shma, franshiza yoki boshqalar)	
6.	Ta'lim tili:	
7.	Ta'lim shakli:	
8.	Ta'lim dasturi hajmi (ECTS krediti yoki akademik soatlar miqdori):	
9.	Ta'lim dasturi davomiyligi (yillar/semestrlar):	
10.	Ta'lim sohasi:	
11.	Milliy malaka ramkasidagi darajasi:	
12.	Kvalifikatsiya(lar) nomi:	
13.	Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar:	
14.	Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi va uning namunasi (davlat, xorijiy, nodavlat):	
15.	Qabul rejasi:	
16.	Qabulni amalga oshirish vaqti:	

Ta'lim tashkiloti tuzilmasi

Ta'lim tashkilotining tashkiliy tuzilmasi, bo'linmalari, kafedralari va boshqa tuzilmaviy tarkiblari ko'rsatiladi. Ta'lim tashkiloti filial yoki boshqa tarkibiy yuridik (yuridik bo'lmagan) tarkibiy tuzilmalari ham ko'rsatiladi.

Oliy ta'lim tashkilotining maydonlar bilan ta'minlanishiga oid ma'lumot

No	Joy nomi	Ta'lim tashkiloti-dagi soni	Ta'lim tashkiloti maydoni, m ²	1 nafar talaba uchun maydon, m ²	Me'yor talabi, m ²	Ta'minlanganlik, % hisobida
1	2	3	4	5	6	7
I	Umumiy maydoni (II-III)					
II	Normadagi (ishchi) maydoni					
1.	Umumiy o'quv auditoriyalari					
	shu jumladan:					
	Ma'ruza xonalari					
	Amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun xonalar					
	Laboratoriya xonalari					
	Texnik va maxsus laboratoriya xonalari					
	Kompyuter zallari (sinflari)					
	Chet tili darslari uchun maxsus kabinetlar					
2.	Alohida kabinalarga ajratilgan fonzallari (ovoz yozish va tinglash uchun jihozlangan xona)					
3.	Kurs loyihasi va malakaviy bitiruv ishlari bajarish zallari					
4.	Rektorat, o'quv bo'limi, kafedra va h.k. joylar					
5.	ARM (kutubxona)					
6.	Majlislar zallari					
7.	Sport inshootlari					
	shu jumladan:					
	ochiq sport maydonlari					
	yopiq sport maydonlari					
	suzish havzalari (basseyn)					
						
III	Xizmat ko'rsatish va turar joy maydonlari					
1.	Ovqatlanish joylari (oshxona, bufet va h.k.)					
2.	Tibbiy xizmat ko'rsatish joylari					
3.	Profilaktoriylar					
4.	Talabalar turar joyi (yashash joyi)					

*Oliy ta'lim tashkiloti bo'yicha umumiy hamda har bir o'quv bino bo'yicha alohida to'ldiriladi

Talabalar kontingenti to'g'risida ma'lumot*

Ta'lim shakli bo'yicha	Joriy o'quv yilidagi talabalar soni									
	Bakalavr						Magistratura		Bundan	
	1- kurs	2- kurs	3- kurs	4- kurs	5- kurs	6- kurs	1- kurs	2- kurs	Mahal- liy talaba- lar soni	Xorijiy talaba- lar soni
Kunduzgi										
Sirtqi										
Kechki										
Masofaviy										
Qo'shma dastur										
Dual										
Bakalavr jami:										
Magistratura jami:										
OTT bo'yicha jami:										

Izoh: *Yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari uchun ushbu jadval to'ldirilmaydi.

Rejalashtirilgan qabul kvotasi

Hajratiladigan qisim kvota:										
T/r	Shifr	Ta'lim yo'nalishi/ mutaxassislik	Ta'lim shakli	Ta'lim tili	Ajratiladigan kvota					
					1- yil	2- yil	3- yil	4- yil	5- yil	6- yil
Bakalavriat										
1										
2										
3										
Magistratura										
1										
2										
3										

Ta'lim dasturi bo'yicha amaliyot bazalari

№	Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari		Bakalavr/ Magistr	Kursi	Jami talabalar soni	Amaliyot o'tash joyi (korxona va tashkilot nomi)	Amaliyot o'taydigan va/yoki o'tayotgan talabalar soni	Izoh
	Kodi	Nomi						
1								
2								
3								
			Jami					

Professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash rejasi hamda ularning ilmiy-pedagogik salohiyati to'g'risida ma'lumot

[illegible]

Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar tarkibining dars bergan (beradigan) fanlari haqida ma'lumot

T/r	Professor- o'qituvchilarning F.I.Sh.	Tug'ilgan yili	Lavozimi	Stavkasi	Tugatgan OTTi nomi	Diplom (<i>diplomli mutaxassis, magistratura</i>) bo'yicha mutaxassisligi	Ilmiy darajasi (qaysi ixtisoslik bo'yicha ekanligi to'liq yozilishi lozim)	Ilmiy unvoni (qaysi ixtisoslik yoki kafedra bo'yicha ekanligi to'liq yozilishi lozim)	Qaysi fanlardan dars berishi (<i>To'liq yozilishi shart</i>)	Qaysi yo'nalish (mutaxassislik) da dars beradi. (<i>To'liq yozilishi shart</i>)
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
	Asosiy shtat									
1										
2										
...										
	O'rindosh									
1										
2										
3										
...										
	Soatbay									
1										
2										
3										
...										

Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar shtat birligi haqida ma'lumot

Kafedra	Fanlar	Ta'lim tili	Kurs	Semestr	Talabalar soni	Potoklar soni	Guruhlar soni	Kichik guruhlar soni	Ma'ruza		Amal. mash. va sem.		Lab. dars.		Oraliq va yakuniy baholash o'tkazish	...	...	Ajratilgan Shtat birligi
									1 ta potok	Jami	1 ta guruh	Jami	1 ta guruh	Jami				
1-o'quv yili uchun																		
2-o'quv yili uchun																		
3-o'quv yili uchun																		
4-o'quv yili uchun																		
5-o'quv yili uchun																		
6-o'quv yili uchun																		

Ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)ning o'quv jarayoni me'yoriy hujjatlari bilan ta'minlanganligi haqida ma'lumot

DTS, malaka talabi, o'quv va ishchi o'quv rejalarining mavjudligi, qachon va kim tomonidan tasdiqlanganligi	Fanlar bo'yicha o'quv dasturlari (sillabus)ning qachon va kim tomonidan tasdiqlanganligi		Mas'ul kafedra
	O'quv dasturlari**	Ishchi o'quv dasturlari (sillabus)***	
1. DTS yoki XTS:	I. Majburiy fanlar*	I. Majburiy fanlar*	
	1.	1.	
	...	...	
2. Malaka talablari			
3. O'R:			
	II. Tanlov fanlari*	II. Tanlov fanlari*	
	1.	1.	
4. IO'R:	...	...	

*) – Fan bloklari tasdiqlangan o'quv rejada ko'rsatilgandek yoziladi. Har bir fanning nomi hamda o'quv dasturlari yoki (sillabus)ning qachon va kim tomonidan tasdiqlanganligi, fanlarga mas'ul kafedralar nomlari alohida yoziladi.

**) – Fanning ishchi o'quv dasturlari (sillabus) OTT Kengashi (o'quv-uslubiy)da muhokama qilinib, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

***)) – O'quv reja bo'yicha kelajakda o'qitiladigan fanlarning o'quv dasturlari yoki (sillabus)ning fan dasturlari tasdiqlangan bo'lsa, qachon tasdiqlanganligi, o'qitiladigan o'quv yili yoziladi.

Ta'lim dasturlarining xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani to'g'risida ma'lumot

T.r.	Ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislik shifri va nomi		O'quv rejadagi fan nomi	TOP-1000 ta'lim dasturi bo'yicha			
	Shifri	Nomi		Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi	Fan nomi	TOP-1000 (QS, THE, ARWU) dagi o'rni	Veb-havola
1	61010100	Turizm va mehmondo'stlik	Turizm marketing	SHMS Shveysariya mehmonxona boshqaruvi maktabi	Marketing va brendingni boshqarish	4	https://www.shms.com/en/
				Purdue universiteti	Mehmonxona va turizm marketingi	99	https://www.purdue.edu/
				Montreux mehmonxona instituti	Mehmonxona savdosi va marketingi	6	https://www.hotelinstitutemontreux.com/en/
				Markaziy Florida universiteti	Turizm menejmenti	27	https://www.ucf.edu/
...	...	...	...				

Ta'lim yo'nalish (mutaxassislik)laridagi fanlarning darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi haqida ma'lumot

T.r.	Fan nomi	O'quv dasturidagi asosiy adabiyotlar (darslik, o'quv qo'llanmalar) nomi	Muallif(lar)	Nashr qilingan yili	ARMdagi soni	Elektron shaklda (mavjud bo'lsa "+" belgisi qo'yiladi)	Barcha yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha mazkur fanni o'qiydigan talabalar soni	O'quv dastur (sillabus)larida keltirilgan asosiy adabiyot (darslik va o'quv qo'llanma)larning o'quv dasturiga muvofiqligi	Fanni o'qitishga mas'ul kafedra(lar) nomi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1		1							
		2							
		3							
									
2		1							
		2							
		3							
									
...		1							
		2							
									

Ta'lim yo'nalishlari (mutaxassislik) bo'yicha laboratoriya ishlarining uslubiy ko'rsatmalar bilan ta'minlanganligi va bajarilishi haqida ma'lumot

t/r	Laboratoriya mashg'ulotlari mavjud bo'lgan fanlar nomi	Laboratoriya ishlari soni	Laboratoriya mashg'ulotlariga ajratilgan soat	Uslubiy ko'rsatma bilan ta'minlangan laboratoriya ishlari soni	Laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan laboratoriya ishlari soni	Laboratoriya jihozlarining yaroqliligi	Bajarilayotgan laboratoriya ishlari soni		
							Laboratoriya uskunalarida	Virtual laboratoriya-larda	OTTdan tashqari (korxona va tashkilotlar)da
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1									
2									
...									
	JAMI:								

Moliyaviy resurslarning o'quv jarayoni, moddiy-texnik baza va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilganligi to'g'risida ma'lumot

№	Ko'rsatkich	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil	5-yil
1	Ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani <i>(Jami moliyaviy resurslarga nisbatan foizda)</i>					
1.1	<i>o'quv jarayoni</i>					
	<i>o'qituvchilarning ish haqlari uchun to'lovlar</i>					
	<i>amaliyotlarni tashkil qilish</i>					
	<i>moddiy rag'batlantirish</i>					
						
1.2	<i>moddiy-texnik baza</i>					
	<i>ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladigan jihozlar (shu jumladan laboratoriya jihozlari) sotib olish</i>					
	<i>zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari sotib olish</i>					
						
1.3	<i>infratuzilmani rivojlantirish</i>					
	<i>o'quv binolarini jihozlash va ta'mirlash xarajatlari</i>					
	<i>sport inshootlarini jihozlash va ta'mirlash xarajatlari</i>					
	<i>internet tarmog'ini ta'minlash xarajatlari</i>					
						

TA'LIM DASTURINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR REJASI

[illegible]

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI

Murojaat uchun

- +998 55 505 30 30
- www.nqaae.uz
- info@nqaae.uz
- 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani,
Universitet ko'chasi, 7-uy.